

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

«MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI» FAKULTETI

«SANOAT ISHLAB CHIQUARISHINI TASHKIL ETISH» KAFEDRASI

«TASDIQLAYMAN»
“Mashinasozlik texnologiyasi”
fakultet dekani
i.f.n. M-A. Eshonov

«HIMOYAGA QO'YILDI»
“Sanoat ishlab chiqarishini tashkil
etish” kafedrası mudiri
i.f.d. U. Madrahimov

«__»_____2019 y.

“Iqtisodiyot” yo'nalishi 4-kurs 148-15-guruh talabasi
Mexmonov Dilmuxammad Dilmurod o'g'li ning

**“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari va bunda
banklarning o'rni”** mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi:

D. Mexmonov

Ilmiy rahbar :

i.f.n. D. Isroilova

Andijon-2019

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

«MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI» FAKULTETI

«SANOAT ISHLAB CHIQRISHINI TASHKIL ETISH» KAFEDRASI

«IQTISODIYOT» YO'NALISHI

«TASDIQLAYMAN»

“Sanoat ishlab chiqarishini tashkil
etish” kafedra mudiri

U. Madrahimov

MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba: Mexmonov Dilmuxammad Dilmurod o'g'li

- **Bitiruv ishining mavzusi**

Kafedraning 2018 yil «4» oktabrdagi № 2 -sonli majlisida ma'qullangan.

- **Bitiruv ishini topshirish muddati** 15.05.2019 yil
- **Bitiruv ishini bajarishga doir boshlang'ich ma'lumotlar:** O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, Prezident farmonlari, mavzuga oid adabiyot va o'quv qo'llanmalar, ilmiy maqolalar va ChEKI “Hamkorbank” ATBning uch yillik hisoboti va ma'lumotlari
- **Hisoblash-tushuntirish yozuvlarning tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yxati):**

- **Chizma ishlar ro'yxati (nomi aniq ko'rsatiladi)**

1.3.1-chizma. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari

2.3.1-chizma. "Hamkorbank" ATB tomonidan yuridik shaxslarga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga ko'rsatiladigan xizmat turlari

6.Bitiruv ishi bo'yicha maslahatchi(lar)

№	Bo'lim mavzusi	Maslahatchi o'qituvchi (F.I.Sh)	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
1	Kirish	i.f.n. D. Isroilova	17.12.2018	
2	Iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	i.f.n. D. Isroilova	04.03.2019	
3	ChEKI "Hamkorbank" ATBda kichik biznes subyektlariga kiritilgan bank kreditlari tahlili	i.f.n. D. Isroilova	20.03.2019	
4	Iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlashni takomillashtirish yo'llari (ChEKI "Hamkorbank" ATB misolida)	i.f.n. D. Isroilova	4.04.2019	
5	Xulosa	i.f.n. D. Isroilova	20.04.2019	

7. Bitiruv ishini bajarish rejasi

№	Bitiruv ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi
1	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati, ahamiyati va rivojlanish bosqichlari	22.01.2019y	
2	O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlan-tirishning huquqiy asoslari	05.02.2019y	
3	O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlanish yo'nalishlari	25.02.2019y	
4	Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va tahlili	06.03.2019y	
5	ChEKI "Hamkorbank" ATBning kreditlash tahlili	28.03.2019y	
6	ChEKI "Hamkorbank" ATBda kichik biznes subyektlariga ko'rsatilayotgan xizmat turlari tahlili	26.04.2019y	
7	Kichik biznes subyektlarini kreditlashdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari	06.05.2019y	
8	Kichik biznes subyektlariga ko'rsatilayotgan bank xizmatlarini takomillashtirish yo'llari	26.05.2019y	

Bitiruv malakaviy ishi rahbari: D.Isroilova

_____ (imzo)

Topshiriqni bajarishga oldim: D.Mexmonov

_____ (imzo)

Topshiriq berilgan sana: " 4 " Oktabr 2019- yil

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI VA BUNDA BANKLARNING O'RNII**

MUNDARIJA

KIRISH	4
I BOB. IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKOR- LIKNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	8
1.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati, ahamiyati va rivojlanish bosqichlari	8
1.2. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asoslari.....	16
1.3. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlanish yo'nalishlari	24
II BOB. ChEKI "HAMKORBANK" ATBDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA KIRITILGAN BANK KREDITLARI TAHLILI.....	34
2.1. Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va tahlili.....	34
2.2. ChEKI "Hamkorbank" ATBning kreditlash tahlili	43
2.3. ChEKI "Hamkorbank" ATBda kichik biznes subyektlariga ko'rsatilayotgan xizmat turlari tahlili	60
III BOB. IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI KREDITLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI (ChEKI "HAMKORBANK" ATB MISOLIDA)	67
3.1. Kichik biznes subyektlarini kreditlashdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	67
3.2. Kichik biznes subyektlariga ko'rsatilayotgan bank xizmatlarini takomillashtirish yo'llari	72
Xulosa.....	77
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	80
Ilovalar.....	83

"Biz iqtisodiyotimizni yanada erkinlashtirish, tadbirkorlarga keng yo'l ochib berish siyosatini bundan keyin ham qat'iy davom ettiramiz. Hal qiluvchi ahamiyatga ega bu sohani har tomonlama qo'llab-quvvatlash, uning oldida paydo bo'ladigan to'siqlarni butunlay olib tashlash masalasi davlat rahbari sifatida mening doimiy e'tiborim va nazoratimda bo'ladi"

Sh.Mirziyoyev

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ichki iste'mol bozorni sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlari tashkil qilib, bandlik masalasini hal etish va shu asosda aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tobora muhim o'rin egallamoqda.

Shu bois ham mamlakatimizda mazkur sohani jadal rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash masalalariga mamlakatimiz Prezidenti va hukumati tomonidan alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Natijada tadbirkorlik subyektlari soni yil sayin ko'payib, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi muttasil oshmoqda. Tadbirkorlarga yaratilgan qulay sharoitlar va imtiyozlar natijasida respublikamiz iqtisodiyotida tadbirkorlik subyektlarining ulushi ko'payib bormoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining asosiy faoliyati banklar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular olib borayotgan faoliyat, xomashyoni sotib olish, ishlab chiqarilgan tovarlar, ko'rsatiladigan xizmatlarga haq to'lash, ishlovchilarni ish haqi bilan ta'minlash, turli toifadagi korxonalar, firma va boshqalar yuridik shaxslar bilan bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar, ya'ni olingan foyda va daromaddan soliq to'lash, transport, kommunal xizmatlar uchun to'lovlarning barcha turlari banklar orqali, o'z navbatida, olinadigan kreditlar va boshqa hisob-kitoblar ham banklar orqali amalga oshadi.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizning tayanch sohasiga aylangan kichik biznesning yanada taraqqiy ettirish, ish bilan band bo'lmagan aholi qatlamini tadbirkorlikka jalb qilish orqali ularni bandligini ta'minlash masalasi boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan bir qatorda, bank - moliya tizimi zimmasiga ham yuksak mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham bank va moliya tizimini rivojlantirish uchun quyidagi fikrlar keltirilgan: "...bank va moliya tizimida islohotlarni jadal davom ettirish, sohaga zamonaviy bozor mexanizmlarini keng joriy etish zarur.

Bugungi kunda bank tizimidagi eng asosiy muammo – ular kapitalining asosiy qismi, ya'ni, 83 foizi davlatga tegishli ekanidir. Bu, o'z navbatida, bank sektorida sog'lom raqobatga to'siq bo'lib, xizmat ko'rsatish sifatiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Hukumat va Markaziy bank xalqaro moliya institutlari ko'magida bank-moliya tizimini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqishi lozim. Bunda bank tizimiga xususiy va xorijiy kapital kirib kelishi hisobidan biz davlat banklari ulushini bosqichma-bosqich kamaytirib boramiz. Bu esa sohada raqobat muhitini yaxshilashga, tijorat banklari faoliyatini, kreditlash sifati va madaniyatini har tomonlama oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, moliya bozorlari, jumladan, fond bozorini rivojlantirish ham yangi iqtisodiy sharoitda asosiy maqsadlarimizdan biri bo'lishi kerak. Yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish va obligatsiyalar chiqarish orqali, bank xizmatlari ko'lamini yanada kengaytirish, ilg'or axborot texnologiyalari asosida bank tizimini rivojlantirish zarur. ¹

Jahon xo'jaligining muhim xo'jalik yuritish qismi bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini barcha faoliyati banklar bilan bog'langanligi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr
<https://www.google.com/>

bugungi kunda hammaga ma'lumdir. Bu esa tanlangan mavzuning ayni paytda dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashda bank rolini oshirish, ChEKI "Hamkorbank" ATB Nodirabegim filialida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatiladigan xizmatlarni kengaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun mazkur bitiruv malakaviy ish doirasida quyidagilarni bajarish belgilangan:

- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati, ahamiyati va rivojlanish bosqichlarini o'rganish;
- O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asoslarini yoritib berish;
- O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish yo'nalishlari, bunda banklarning o'rnini ochib berish;
- Andijon viloyati iqtisodiyotida kichik biznes subyektlarining ulushini tahlil qilish;
- "Hamkorbank" ATB Nodirabegim filialida kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni tahlil qilish;
- Ushbu filial tomonidan kichik biznes subyektlariga ko'rsatilayotgan xizmat turlarini tahlil qilish;
- Istiqbolda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini izchil rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilashga takliflar berish;
- Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini O'zbekistonda qo'llash bo'yicha nazariy taklif va tavsiyalar berish.

Bitiruv malakaviy ishining obykti. Andijon viloyati, ChEKI "Hamkorbank" ATB Nodirabegim filiali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyati.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. ChEKI “Hamkorbank” ATB Nodirabegim filialida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ko’rsatiladigan xizmatlarni kengaytirish va sifatini baholash bo’yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari. Mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va bunda banklarning rolini oshirishga qaratilgan O’zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev asarlari, nutq va ma’ruzalari, mamlakatimiz hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlanmalari, darslik va o’quv qo’llanmalari, internet tizimi ma’lumotlari, ChEKI “Hamkorbank” ATB Nodirabegim filialining bek ofisi hamda front ofis bo’limlari ma’lumotlari, bankning iqtisodiy ko’rsatkichlari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining umumiy strukturasi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, uchta bob, 8 ta paragraf, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, bitiruv malakaviy ishning maqsadi, vazifalari, obykti va boshqalar bayon etilgan.

Asosiy qismning birinchi bobida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati, ahamiyati va rivojlanish bosqichlarini, O’zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash va rivojlantirish yo’nalishlari, bunda banklarning o’rni yoritilgan.

Ikkinchi bobda esa Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli, "Hamkorbank" ATBda kichik biznes subyektlariga ko’rsatilayotgan xizmat turlari va kreditlash tizimi tahlil qilingan.

Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari va bunda bank xizmatlarini takomillashtirish uchun nazariy tavsiyalar berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining yakunida mavzu bo’yicha umumiy xulosalar keltirilib, amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Izlanishda adabiyotlardan keng foydalanilgan.

Ularning ro’yxati ish yakunida keltirilgan.

I BOB. IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

1.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati va rivojlanish bosqichlari

Kichik biznes va tadbirkorlik o'z ko'lamini jihatidan iqtisodiyotni uzluksizligini va barqarorligini ta'minlashda katta o'rin egallaydi. Birinchidan, ushbu sektor bozor sharoitida zarur tezkorlikni ta'minlaydi, ishlab chiqarishdagi chuqur ixtisoslashuv va tarmoqlashgan kooperatsiyani yaratadi, bularsiz yuksak samaradorlikni tasavvur qilib bo'lmaydi. Ikkinchidan, u iste'molchilik sohasida vujudga keladigan «tuynukni» tezda to'ldirishga qodir bo'libgina qolmay, eng zamonaviy mashina - uskunalari va texnologiyalardan foydalanib, sarflangan sarmoyaning o'rnini juda tez qoplay oladi. Uchinchidan, mayda biznes bozor uchun zarur bo'lgan raqobatchilik muhitining tez paydo bo'lib, yo'qolib yetadigan turli xil shakllarni yaratib beradi, u bir zumda o'zgarib turadigan bozor talabiga javob berishga tayyor bo'lish qobiliyatiga ega. To'rtinchidan, u shunday tadbirkorlik muhiti va ruhini yaratadiki, eng avvalo, ishlab chiqaruvchilarning shaxsiy manfaatdorligi va tashabbusi asosiga qurilgan birorta ham bozor iqtisodiyoti bularsiz kun ko'ra olmaydi.

Jahondagi ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes allaqachon iqtisodiyotda asosiy mavqeni egallagan. Masalan AQShda 19 millionta turli mustaqil firmalarning 90 foizdan ortig'i mayda korxonalaridir. Yaponiyada o'rta va kichik korxonalar jumlasiga kiradigan 10 millionta mustaqil kompaniyaning 99 foizi, shuningdek kichik biznes sektoriga kiradi.

Avvalo, bu tushunchalarga to'xtaladigan bo'lsak, iqtisodiyot fanida tadbirkorlik faoliyatiga doir dastlabki tadqiqotlar XVIII asrda R.Kantilon, A.Tyurgo, F.Kene, A.Smit va J.B.Sey asarlarida amalga oshirila boshlandi. Biroq hozirga qadar jamoatchilik fikrida "tadbirkorlik" tushunchasining ko'p ma'noliligi saqlanib qolmoqda. Ilmiy adabiyotda ushbu tushuncha haqida ko'pincha bu favqulodda hodisaning iqtisodiy, tashkiliy va ruhiy tavsiflari (turli-tuman qarashlar) to'planishidan iborat har xil tasavvurlar mavjud. Xorijiy adabiyotlarda

biznes ta'rifini ko'p turlari mavjuddir. Inson jamiyatining butun rivojlanish tarixi u yoki bu jihatdan doimo biznes bilan bog'liq bo'lgan.

Tadbirkorlik tushunchalarining hozirgi ma'nosida XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida ilk bor ingliz iqtisodchisi Richard Kantilon qo'llagan edi. Uning fikricha, tadbirkor tavakkalchilik sharoitida faoliyat yurituvchi kishidir. Shu boisdan u yer va mehnat omilini iqtisodiy farovonlikni belgilab beruvchi boylik manbai deb bilgan. Keyinchalik, XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshida mashhur fransuz iqtisodchisi J.B. Sey (1767-1832) "Siyosiy iqtisod risolasi" kitobida (1803-y.) tadbirkorlik faoliyatini ishlab chiqarishning uch mumtoz omillari yer, kapital, mehnatning yaxlitligi deb ta'riflagan edi. U Angliya sanoatining muvaffaqiyatini "ingliz tadbirkorlari iste'dodi" ta'minlaganligini ta'kidlagan edi.² J.B.Seyning asosiy tezisida mahsulot ishlab chiqarishda tadbirkorlar asosiy faoliyat yuritadi deyiladi. J.B. Seyning fikricha, tadbirkor olgan daromad uning mehnati, ishlab chiqarishni tashkil etganligi, mahsulotni o'z vaqtida sotganligi uchun berilgan mukofotdir. Tadbirkor tavakkal qilib, biror-bir mahsulotni ishlab chiqarishni o'z bo'yniga oladi.³

Qayd etish lozimki, iqtisodiyot fanining asoschilari tadbirkorlik shakliga kam e'tibor berganlar. Tadbirkorlik faoliyati ulaming ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlil obyekti bo'lmagan. Ingliz iqtisodchi olimlari A.Smit (1723-1790) va D.Rikardo (1772-1823) iqtisodiyotni o'z-o'zini muvofiqlashtiruvchi mexanizm deb qabul qilganlar. Ushbu mexanizmda ijodiy tadbirkorlikka o'rin yo'q edi. "Xalqlar boyliklarining mohiyati va sabablarini tadqiq etish" (1776-y.) kitobida A.Smit tadbirkor ta'rifiga alohida e'tibor bergan edi. A.Smitning fikricha, tadbirkor kapital egasi. U muayyan tijorat g'oyasini amalga oshirib, daromad olish uchun tavakkalchilik bilan ish boshlaydi, chunki kapitalni biror-bir ishga sarflash doimo tavakkalchilik bilan bog'liqdir. Tadbirkorlikdan olingan daromad, A.Smitning fikricha, shaxsiy tavakkalchilik uchun olingan mukofot. Tadbirkor ishlab chiqarishni o'zi rejalashtiradi, tashkil etadi, ishlab chiqarish faoliyati natijalariga

² Islomov A., Egamov E. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. O'quv qo'llanma. / Toshkent, «IQTISOD-MOLIYA», 2005 38-b

³ Samarqand qishloq xo'jaligi instituti "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi" kafedrası "Kichik biznes va tadbirkorlik" fani bo'yicha tayanch konspekt 3-bet

egalik qiladi. Bu ishlar, o'z navbatida, bozor tizimi bilan bog'liq. Shu bois A.Smit bizlarni bozor tizimining markaziy mexanizmi raqobat mexanizmi bilan tanishtiradi. O'z manfaatini ko'zlab yurgan har bir kishi bozorda shu maqsad bilan yurgan kishilarga duch keladi. Natijada, bozordagi har bir harakat qiluvchi subyekt raqobatchi taklif etgan narxlarga rozi bo'ladi. Bunday raqobatda o'xshash tovarlarga me'yordan ortiq narx qo'ygan ishlab chiqaruvchi xaridorni yo'qotishi hech gap emas. A.Smitning qayd qilishicha, bozor jamiyat sotib olishni xohlagan va kerakli miqdordagi tovarlarni ishlab chiqaradi. Shu bilan birga, A.Smit bozorning qudratli kuch ekanligini, u jamiyatni zarur tovarlar bilan doimo ta'minlashi va bu tizim o'z-o'zini muvofiqlashtirishini ko'rsatib berdi. Uning fikricha, o'z-o'ziga qo'yib berilgan bozor tizimi rivojlanadi va bunday tizimi bor xalqning boyligi ortaveradi.⁴

XIX - XX asrlar chegaralarida tadbirkorlik institutining ahamiyati va rolini ko'pchilik anglay boshladi. Fransuz iqtisodchisi Andre Marshall (1907-1968 y.) birinchi bo'lib ishlab chiqarishning uchta omiliga (yer, kapital, mehnat) to'rtinchi tashkillashtirish omilini qo'shdi. Shu vaqtdan boshlab, tadbirkorlik tushunchasi va shu sohada olib boriladigan ishlar ko'lami kengayib bormoqda. Amerikalik iqtisodchi J.B. Klark (1847-1938) J.B.Seyning "uchlik formulasiga" bir oz o'zgartirish kiritdi. Uning fikricha, ishlab chiqarishda doim to'rt omil ishtirok etadi:

- 1) kapital;
- 2) ishlab chiqarish vositalari va yer;
- 3) tadbirkorlik faoliyati;
- 4) ishchining mehnati.⁵

J.B. Klark so'zi bilan aytganda: "Erkin raqobat mehnatga mehnatdan kelgan narsani beradi, kapitalistlarga kapital yaratgan narsa tegadi, tadbirkorlar muvofiqlashtirish faoliyatidan kelgan narsani oladi".⁶ Tadbirkorlik faoliyatini u ana shunday tushungan.

⁴ Bo'ronov O.B., Egamov R.M. Tadbirkorlik asoslari. Ma'ruzalar matni. Samarqand, 2016 13-b

⁵ Bo'ronov O.B., Egamov R.M. Tadbirkorlik asoslari. Ma'ruzalar matni. Samarqand, 2016 13-b

⁶ Кларк Ж.Б. Распределение богатства. -М., 1994. 40 стр.

Mashhur amerikalik iqtisodchi Y.Shumpeter (1883-1950 y) o'zining “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi”⁷ kitobida, tadbirkorni novator (yangilik bunyod qiluvchi odam) deb ta’riflagan. Olim tadbirkorlik faoliyatini kapitalistik iqtisodiyotning rivojlanishida, iqtisodiy o'sishni ta’minlashda katta rol o'ynaydigan yangiliklarni joriy etishdan iborat, deb biladi: “Vazifasi yangi kombinatsiyalarni joriy etishdan iborat bo'lgan xo'jalik subyektlarini biz tadbirkor deb ataymiz”. Ushbu muammoga iqtisodiyot sohasida Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan (1976 y) ingliz iqtisodchisi Fridrix Fon Xayn (1899-1984 y) boshqacha yondashgan. Uning fikricha, tadbirkorlik faoliyat bo'lmasdan, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlarni izlab topish, xatti-harakatlarni ta’minlashdir⁸.

Amerikalik olim R.Xizrich “Tadbirkorlik o'z qiymatiga ega bo'lgan qandaydir yangi narsani yaratish jarayoni, tadbirkor esa buning uchun barcha zarur vaqti va kunini sarflaydigan, barcha moliyaviy, psixologik va ijtimoiy xavf-xatarni o'ziga olib, evaziga mukofot sifatida pul va erishilgan yutug'idan qanoatlanuvchi shaxs”⁹, -deb ta’kidlaydi. Ingliz professori A. Xoskin esa: “Ishni o'z hisobidan olib boruvchi, biznesni boshqarish bilan shaxsan shug'ullanuvchi va kerakli vositalar bilan ta’minlanish uchun shaxsiy javobgarlikka ega, qarorni mustaqil qabul qiluvchi shaxs yakka tartibdagi tadbirkor bo'ladi”¹⁰, - deb izohlaydi.

Na xorijda, na bizda hali tadbirkorlikning umum tomonidan e’tirof etilgan ta’rifi mavjud emas. O’zbekistonda va MDHda biznes haqidagi maqolalar, adabiyotlar 60-yillarning o’rtalarida paydo bo’ldi. Lekin bizda biznesni fan tariqasida o’rganish faqatgina 90-yillarning boshlarida bozor munosabatlariga asta-sekin o’tish bilan boshlandi.

“Tadbirkorlik” tushunchasi tadbirkorlik ensiklopedik lug'atida quyidagicha ta’riflanadi: “Tadbirkorlik shaxsiy daromad, foyda olishga qaratilgan fuqarolarning mustaqil faoliyati. Bu faoliyat o'z nomidan o'z mulkiy mas’uliyati va yuridik shaxsning yuridik mas’uliyati evaziga amalga oshiriladi. Tadbirkor qonun

⁷ Шумпетер Й. А. Теория экономического развития. М.: Прогресс, 1982.

⁸ Хайр Ф. Конкуренция как процедура открытия. «Мировая экономика и международные отношения» журнал 1989. 42,-36-38 стр.

⁹ Хизрич Р., Питерс С. Предпринимательство. -М., "Прогресс-Универс" 1991, 20 стр.

¹⁰ Хоскин А. Курс предпринимательства. -Издательство БГСХА М., 1993, 23 стр..

tomonidan taqiqlanmagan barcha xo'jalik faoliyati, shu jumladan, vositachilik, sotish, sotib olish, maslahat berish, qimmatbaho qog'ozlar bilan ish olib borish bilan shug'ullanishi mumkin"¹¹.

“Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatini kafolatlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunida tadbirkorlikka quyidagicha ta'rif berilgan: “Tadbirkorlik mulkchilik subyektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarlik asosida amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdir”.

“Kichik biznes va tadbirkorlik” o'quv qo'llanmasida tadbirkorlikka quyidagicha ta'rif keltirilgan: ”Tadbirkorlik iqtisodiy faoliyatning alohida turi bo'lib, uning zamirida mustaqil tashabbus, javobgarlik, tadbirkorlik g'oyasiga asoslangan, foyda olishga yo'naltirilgan, maqsadga muvofiq faoliyat yotadi. Tadbirkorlik iqtisodiy faollikning alohida turi bo'lib, uning boshlang'ich bosqichi, odatda fikrlash faoliyati yoki uning natijasi bilan bog'langan bo'ladi, faqat u keyin moddiy shaklni oladi. Tadbirkorlik yangilik kiritish, tovar ishlab chiqarish faoliyatini o'zgartirish yoki korxonani (shu jumladan, kichik korxonani) tashkil qilish sohasida ijodkorlikning mavjudligi bilan ta'riflanadi. Tadbirkorlik faoliyatining ijodkorlik jihatlari boshqaruvning yangi tizimida ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi usullari yoki yangi texnologiyalarini tatbiq etishda o'z ifodasini topadi”¹².

Tadbirkorlik o'tgan ikki asr davomida rivojlanib, turli davrlar va bosqichlarni bosib o'tdi. Har bir davr va bosqichda tadbirkorlik oldida o'ziga xos vazifalar turadi.

Barcha yangi mustaqil davlatlarda islohotlardan oldingi davrda mulkchilikning davlat shakli ustunlik qilgan. Xo'jalikning davlat sektorida mehnatkashlar umumiy sonining 4/5 qismi, kooperativlarda 14-15% (bulardan yarmidan ko'pi kolxozlarda), xususiy sektorda 3% ga yaqini band bo'lgan. 80-yillarning ikkinchi yarimida xo'jalikning kooperativ sektorini yaratish, ijarani

¹¹ Boltabayev M., Qosimova M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik *Darslik* Toshkent - “Iqtisodiyot” – 2011, 21-bet

¹² Boltabayev M, Qosimova M, G'oyibnazarov B., Ergashxodjayeva Sh., Samadov A., Otajonov Sh. Kichik biznes va tadbirkorlik O'quv qo'llanma Toshkent : Noshir, 2011 12-bet

rivojlantirishga harakat qilingan. Bu harakat bozor infratuzilmasini rivojlanmaganligi davlat mulkchiligining hukmronligi, xo'jalik yuritishning yangicha shakllarini davlat sektoriga qaramligi, xo'jalik qonunlarining noaniqligi va bir qator sabablar tufayli natijasiz bo'lgan.

O'zbekistonda tadbirkorlikning rivojlanishida xo'jalik erkinligining oshishi va ma'muriy-qonunchilik cheklovlarining qisqarishi, tadbirkorlik (avvalo, kichik, xususiy, qo'shma tadbirkorlik)ning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, tadbirkorlik tashabbusining yangi imkoniyatlari va sohalarining ochib borilishi, soliq islohotlari va ma'muriy islohotlar ham katta yordam berdi. Mamlakatda sarmoya bozori va biznesni mablag' bilan ta'minlash imkoniyatlari kengaydi, yangi moliya muassasalari va axborot ta'minoti rivojlandi, patent-litsenziya tizimi mustahkamlandi, xo'jalik faoliyatining yangi turlari paydo bo'ldi va kengayib bordi. Respublikada tadbirkorlikni tezroq oyoqqa turg'azish, rivojlantirish, jamiyatda o'ziga munosib o'rinni egallab olishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi va ularni yaxshilash davom etmoqda. Ulardan eng muhimi va boshqa shart-sharoitlar uchun asos hisoblanadigani me'yoriy-huquqiy bazadir. Bu baza yildan-yilga kengayib, mustahkamlanib, takomillashib, rivojlanib bormoqda.

O'zbekiston hududida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanish bosqichlari quyidagicha:

I bosqich (1989-1991 y.): ilmiy-texnik ijodiyot markazlari, kooperativlar shaklida dastlabki tadbirkorlik tuzilmalarining paydo bo'lishi, tadbirkorlikning tajribaviy tavsifi va kam sondagi jarayon ishtirokchilari, respublikamizning mustaqillikka erishishi, qomusimizda xususiy mulkning e'tirof qilinishi, bozor iqtisodiyotining negizini tashkil etuvchi bir qator qonunlarning qabul qilinishi munosabati bilan xususiy mulk negizida tadbirkorlikning shakllana boshlanish davri hisoblanadi. Bu davr kichik biznes infratuzilmasi va institutsional qo'llab-quvvatlashning, uning YaIM dagi ulushining deyarli yo'qligi bilan tavsiflanadi.

II bosqich (1992-1997 y.): bozor munosabatlarining poydevori qo'yilishi, iqtisodiy islohotlar va xususiylashtirishning amalga oshirilishi, kichik biznesni qo'llab-quvvatlovchi ilk infratuzilmalar "Biznes-fond", "Madad" sug'urta agentligi, "Tadbirkorbank", "Biznes maktab" va "Biznes-inkubator"lar tarmog'i va

h.k.larning tashkil etilishi evaziga kichik korxonalar va kooperativlar sonining tez o'sishi bilan tavsiflanadi. Ushbu davrda faoliyat yuritayotgan subyektlarning aksariyati savdo sohasiga to'g'ri kelar edi.

III bosqich (1998-2001 y.): ushbu davr respublikamizda makroiqtisodiy barqarorlikka erishib, iqtisodiy o'sishning boshlanishi, davlat va mintaqalarida kichik biznesni qo'llab-quvvatlovchi turli muassasalarning tashkil etilishi, tadbirkorlik tasniflanishining o'zgarishi, sinayotgan va faoliyat yuritmayotgan subyektlar sonining ortishi, xususiylashtirish, iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi, iqtisodiyotni erkinlashtirishning boshlanishi, soliq yukining kamayishi boshlanishi, mamlakat YaIMda, iqtisodiyot tarmoqlaridagi faoliyat yuritayotgan subyektlar va iqtisodiyotda bandlar sonida kichik biznes ulushining ortishi bilan tavsiflanadi.

IV bosqich (2002-2010 y.): ushbu davr makro va mikrodarajada kichik biznesni har tomonlama rag'batlantirishning kuchayishi, soha tasnifining o'zgarishi, soddalashtirilgan «biryo'la» ro'yxatga olish, sertifikatlash, standartlash, litsenziyalash, ruxsat berishning joriy etilishi, faoliyat yuritmayotgan subyektlar ulushi kattaligi, soliq yukining kamayishi, YaIMda sektor ulushining yanada ortishi, iqtisodiyot tarmoqlarida subyektlar optimal nisbatining shakllanishi, kasanachilik asosidagi kooperatsiya, xizmat ko'rsatish va servis sohasining rivojlana boshlanishi bilan tavsiflanadi.

V bosqich (2010 yildan – hozirgi vaqtgacha): ushbu davr biznesni ixtiyoriy tugatish, turli resurslarni erkin sotib olishning soddalashtirilishi, texnik va texnologik modernizatsiyalash, eksportga mahsulot ishlab chiqaruvchilarning soliq yukining kamayishi, faoliyat yuritmayotgan subyektlar soni kamayishi, ish o'rinlari yaratishda kasanachilik ulushining ortishi, xizmat ko'rsatish va servis sohasining yanada rivojlanishi, aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish hududiy dasturlari ishlab chiqilishi bilan tavsiflanadi.

Bugungi kunga kelib, amalga oshirilgan islohotlar natijasida kichik biznes subyektlarining ro'yxatdan o'tish vaqti 30 daqiqani tashkil etadi. Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tish uchun faqat bir dona, yuridik shaxs sifatida kichik korxonani ro'yxatga olishda esa ikki dona hujjat talab etiladi. Deyarli

barcha tarmoqdagi kichik korxonalarining yagona soliq to'lovi stavkasi realizatsiya qilingan tovarlar va xizmatlar hajmining 4 % ni tashkil etmoqda. Shu bilan bir qatorda kichik biznes subyektlari uchun yagona ijtimoiy to'lovning amaldagi stavkasi 12% hisoblanmoqda.

Respublikaning barcha hududlarida tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatuvchi "Yagona darcha" tamoyili ostida faoliyat ko'rsatadigan markazlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi markazlar tashkil qilingan. Tadbirkorlik faoliyatini endi boshlovchi subyektlar uchun o'zlarining biznes rejalarini tuzish, huquqiy va amaliy ko'mak berish, shuningdek faoliyatlari uchun zarur ma'lumotlarni olishlari uchun "biznes-inkubator"lar tashkil etilgan.

Respublika bo'yicha tadbirkorlarga biznes yuritish bo'yicha o'quv kurslari, xususiylashtirilgan obyektlar bazasida loyihalar amalga oshirish, 5 yil muddatga nol stavkada ijara asosida yer maydonlari ajratish orqali yosh tadbirkorlar uchun klasterlar tashkil etildi.

1.2. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asoslari

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan qator mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda O'zbekistonda ham bozorga o'tish bosqichining o'zidayoq tadbirkorlikni davlat tomonidan himoya qilish va qo'llab-quvvatlash tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Uning asosiy maqsadi ham davlat hamda mahalliy boshqaruv darajalarida zarur huquqiy xo'jalik, tashkiliy, moddiy, moliyaviy va ijtimoiy, psixologik shart-sharoitlar va mexanizmlarni barpo etishdan iborat bo'lishi lozim.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish, xususiy mulk muhofazasi va kafolatlarining huquqiy mexanizmlarini yanada mustahkamlash, tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, investitsiya muhiti va ishbilarmonlik holatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar izchil ravishda amalga oshirilmoqda.

Mustaqillik yillarida xususiy mulkdorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini, davlat, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari bilan o'zaro munosabatlarda tadbirkorlarning huquqlari ustuvorligini, xususan, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga asossiz aralashuvlardan ishonchli huquqiy kafolatlarni ta'minlab beradigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Bunga mustaqillik yillarida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Yer to'g'risida"gi, "Mulk to'g'risida"gi, "Bank va banklar faoliyati to'g'risida"gi, "Korxonalar to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida"gi, "Monopolistik faoliyatni cheklash to'g'risida"gi, "Kooperatsiya to'g'risida"gi, "Ijara to'g'risida"gi, "Monopolistik faoliyatni cheklash to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik to'g'risida"gi, "Chet el investitsiyalari va chet el investorlari faoliyatlari kafolatlash to'g'risida"gi, "Xususiy korxonalar to'g'risida"gi va shu kabi qonunlari tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy bazasini tashkil etdi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur huquqiy muhitni yaratish yagona konsepsiya asosidagi qonunchilik va me'yoriy bazani yaratish va doimo takomil-

lashtirib borish tizimining mavjudligini taqozo etadi. Bunday tizim quyidagilarni nazarda tutadi:

- qonunchilikda xususiy biznesning erkinligi, himoyasi va qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydigan aniq huquqiy kafolatlarni belgilash;
- mavjud me'yoriy-huquqiy bazani yangi qonunlarga muvofiqlashtirish;
- xususiy mulkni hech kim olib qo'ya olmaydigan huquqini konstitutsiya orqali mustahkamlash;
- xususiy korxonalarining mustaqil ravishda xo'jalik faoliyati yuritishini, xususiy mulk himoyasi va daxlsizligini kafolatlash;
- qonun hujjatlarini qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlari, shuningdek, tadbirkorlarning manfaatlarini ifodalaydigan nodavlat tashkilotlari orqali amalga oshirish mexanizmini shakllantirish;
- hududiy, tarmoq, boshqarish va hukumat organlarining, jamoat tashkilotlarining o'zaro kelishib faoliyat ko'rsatishi va boshqalar.

Tadbirkorlikning me'yoriy-huquqiy bazasini quyidagilar ta'minlaydi:

- qonun chiqaruvchi organlar;
- hukumat organlari: vazirliklar, davlat qo'mitalari va muassasalari;
- qonun hujjatlarining ayrim qoidalarini aniqlashtiradigan davlat boshqaruv organlari va hokimliklar;
- tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat markaziy organlari;
- tadbirkorlik doiralari manfaatlarini ifodalovchi nodavlat tashkilotlari, shu jumladan, tadbirkorlar uyushmalari;
- qonun hujjatlarini qo'llash obyektlari hisoblangan va teskari aloqa mexanizmini ta'minlaydigan tadbirkorlik tuzilmalari;
- respublikada qonun hujjatlariga rioya qilinishi va ularning bir xil talqin etilishini nazorat qiladigan organlar;
- qonun hujjatlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlovchi, qonun hujjatlarini ekspertiza qiluvchi, ularni amalda qo'llash samaradorligini oldindan aytish va monitoringi bilan shug'ullanuvchi ilmiy muassasalar (xorijiy ekspertlar ham kiradi);

- makroiqtisodiyotning strategik va innovatsiya yo'nalishlarini belgilovchi ijtimoiy-institutsional tashkilotlar va guruhlar.

Bizning mamlakatimizda xorijiy mamlakatlar tajribalariga suyangan holda, tadbirkorlikni rivojlantirishga davlat tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Mamlakatda tadbirkorlik faoliyatining to'sqinliksiz amalga oshirilishini ta'minlash, biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va respublikaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Buni 2017-yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹³gi farmonini qabul qilinishi orqali ko'rishimiz mumkin. Erkin raqobatga tobora keng imkon yaratish, turli mulkchilik shakllaridagi bozor subyektlari o'rtasida bo'ladigan iqtisodiy-huquqiy munosabatlarni jahon andozalari darajasida tashkil etish borasida ushbu qonun muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunda tadbirkorlikning iqtisodiy-huquqiy mustaqilligi hamda ushbu mustaqillikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan kafolatlar, tadbirkorlikning huquq va mas'uliyati aniq belgilangan. Ushbu qonunlarda tadbirkorlar o'rtasidagi munosabatlar, ularning boshqa korxonalar va tashkilotlar, davlat boshqaruv idoralari bilan munosabatlarini tartibga solishga taalluqli qoidalar ham yoritib berilgan. Qonun mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllarini erkin tanlashga, bu shakllarning teng huquqiylik asosida amal qilishiga, o'zaro hamkorlik va erkin raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan sharoitlarni yaratilishiga ko'maklashadi.

Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash, bozor islohotlarini liberallashtirish va chuqurlashtirish yo'lidan jadal harakat qilish, tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va g'ovlarni bartaraf etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini ta'minlash maqsadida

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.07.2018 y. dagi PF-5490-sonli "Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni tasdiqlandi.¹⁴

Mazkur qonunlarga binoan tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, yakka tartibdagi tadbirkorlik, birgalikdagi tadbirkorlik subyektlarining miqyosi aniq belgilab berilgan. Kichik biznesning mezonlarini belgilash zaruriyati kichik korxonalar davlatning jiddiy yordamiga muhtojligidan kelib chiqadi, bu yordam adresli bo‘lishi va korxonalar faoliyatining belgilangan tomonlarini yaxshilashga yo‘naltirilishi kerak. Kichik korxonalarni alohida kategoriyalarga ajratish ular faoliyatini o‘rganish va samaradorlik darajasini tahlil qilish, ularning iqtisodiyot umumiy tizimidagi o‘rni va rolini aniqlash uchun zarur.

O‘zbekistonda kichik korxonalarni, unda ishlovchi xodimlar soni bo‘yicha guruhlarga ajratish qabul qilingan. Buni 1.2.1-jadvaldan ko‘rish mumkin.

1.2.1-jadval

Faoliyat sohalari bo‘yicha kichik korxonalarda ishlovchi xodimlar soni¹⁵

Faoliyat sohalari	Xodimlarning yillik o‘rtacha soni
Yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish, asbobsozlik, yog‘ochni qayta ishlash, mebel va qurilish materiallari sanoatida	100 kishigacha
Mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, qurilish va boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohaslarida	50 kishigacha
Fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, transport, aloqa, xizmat ko‘rsatish sohalari (sug‘urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa noishlab chiqarish sohaslarida	25 kishigacha

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.08.2011 y. dagi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4354-sonli farmoni.

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.08.2016 y.dagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 275-sonli qarori.

Yangi mezonlar korxonalarini ayrim kategoriyalarga bo'lishni tartibga solish imkoniyatini beradi. Bu soliqqa tortish bo'yicha imtiyozlarni belgilash, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq choralarni qabul qilish va respublika mintaqalarida kichik korxonalar tarmog'ini kengaytirish sohasida infratuzilmaviy tashkilotlar faoliyatini takomillashtirishda g'oyatda muhimdir.

Xodimlarning soni kichik biznes subyektlarining asosiy ko'rsatkichidir. U firmaning barcha xodimlarini, shu jumladan, shartnomalar bo'yicha va o'rindoshlik bo'yicha ishlovchilarni haqiqatdan ishlangan vaqtini hisobga olish hamda vakilliklar, filiallar, korxonaning boshqa ajratilgan bo'linmalari xodimlarini hisobga olish bilan aniqlanadi. Belgilangan sondan oshib ketgan holda kichik korxonalar oshib ketishga yo'l qo'yilgan davr va keyingi uch oy davomida imtiyozlardan mahrum bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2010-yil 28-iyuldagi PF-4232-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Biznesning qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2017-yil 19-iyundagi PF-5087-sonli va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 17-noyabrdagi PF-5242-sonli farmonlariga muvofiq ko'plab maqsadli dasturlar amalga oshirildi.¹⁶

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasining rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi" PF-4947-sonli Farmonining 3-yo'nalishining 4-bandi iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uni ustuvor mavqeni yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy

¹⁶ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2018-y

islohotlarni davom ettirishga bag'ishlangan bo'lib, unda quyidagi vazifalar belgilab berilgan:

- xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, barcha turdagi to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivojiga to'liq erkinlik berish, "Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi" degan prinsipni amalga oshirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish;
- davlat mulkini xususiylashtirishni kengaytirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- tadbirkorlik subyektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo'yicha tartib-taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish;

Hududlarda oilalarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishga, ularning barqaror va qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'lishiga, milliy hunarmandchilik yanada rivojlanishiga, xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslari amalga oshirilishiga, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g'oyalari va loyihalari ro'yobga chiqishiga hamda shu asosda aholining bandligi ta'minlanishiga zamin yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martda "Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4231-sonli qarori ishlab chiqildi.

Tadbirkorlik subyektlari huquqlari va manfaatlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini mustahkamlash, ularning faoliyatida qonuniylikni ta'minlash, respublikada investitsiya iqlimini va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, shuningdek prokuratura organlariga xos bo'lmagan vazifa va funksiyalarni chiqarib tashlash yo'li bilan ularning faoliyatini optimallashtirish

maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-martda “Tadbirkorlik faoliyatini himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish va prokuratura organlari faoliyatini optimallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5690-sonli farmoni imzolandi. Ushbu farmonga ko‘ra 2019-yil 1-apreldan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o‘tkaziladigan tekshiruvlarni muvofiqlashtirish va nazorat qiluvchi organlar tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruvlarning qonuniyligi ustidan nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil tomonidan amalga oshiriladi.

Bundan tashqari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va ularni moliyalashtirish maqsadida respublikamizdagi tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar ajratilishi uchun bir qator qaror va farmonlar imzolangan. Bular 2011-yil 11-martdagi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kredit berishni ko‘paytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2016-yil 3-fevralda 2758-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Tijorat banklari tomonidan kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga mikrokreditlar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaror, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2017-yil 12-mayda 2883-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Tijorat banklari tomonidan yangi ro‘yxatga olingan yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va oilaviy tadbirkorlik subyektlariga mikrokreditlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaror, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning 2018-yil 22-fevralda 2975-sonli “Aholi bandligini ta‘minlash uchun tijorat banklari tomonidan mikrokreditlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaror, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi PQ-3777-son “Har bir oila - tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi qarorlar tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan aholining tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularga imtiyozli kreditlar ajratish hamda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishning har bir bosqichida

mutasaddi idoralar tomonidan tizimli amaliy yordam ko'rsatilishini ta'minlamoqda.

Respublikmizda chiqarilgan qonun va farmonlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ko'plab sharoitlar yaratildi. Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalariga besh yil davomida ular ro'yxatdan o'tgan kunidagi soliq va majburiy to'lovlar stavkasini qo'llash huquqi beriladi. 2018-yilda 1 gektardan ko'proq yer maydoniga ega bo'lgan kichik korxonalar yagona yer solig'i to'lashi belgilandi. Kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash quyidagi yo'llar orqali amalga oshirilmoqda: banklar tomonidan imtiyozli stavkalar bo'yicha kreditlar berish; tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining tadbirkorlik faoliyatiga berilgan kredit mablag'larining 50% miqdoridagi kafillik va tijorat banklari kreditlari bo'yicha hisoblangan foiz xarajatlarini qoplash.¹⁷

Tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga mas'ul institut tomonidan biznes manfaatlarini himoyalangan. O'zbekistonda kichik biznes subyektlari faoliyatini rejadan tashqari tekshirish bekor qilindi, shuningdek birinchi marta sodir etilgan moliyaviy-xo'jalik huquqbuzarlik uchun tadbirkorlik subyektlari ma'muriy jarimalarning barcha turlaridan ozod etilgan.¹⁸

Mamlakatimizning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan korxonalariga alohida e'tibor qaratish, iqtisodiy jarayonlarning tarkibiy tuzilishini mutassil takomillashtirib borish zaruratini kuchaytirmoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va mahsulot sifatini diversifikatsiyalashda asosiy ustuvor yo'nalish bo'lgan ushbu sohaning tarkibiy tuzilishi, tabiiy resurslar salohiyati, geografik joylashuvi, mehnat resurslari hamda omillaridan samarali foydalanishga ta'sir ko'rsata oladigan davlatning qo'llab-quvvatlash siyosati juda zarur bo'ladi.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-avgustdagi "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil qilish to'g'risida"gi qarori.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni

1.3. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlanish yo'nalishlari

Iqtisodiyotning bugungi kundagi rivojlanish darajasi, iqtisodiy aloqalarning g'oyat keng miqyosli va murakkab bo'lib borayotgan bir sharoitida bozor kuchlari o'ta mukammal bo'lib ishlaganda ham iqtisodiy munosabatlarni to'la to'kis tartibga sola olmaydi. Hozirgi kunda ishlab chiqarish chuqur ixtisoslashgan bo'lib, tovar va xizmatlar ko'pchilik mehnatining mahsuliga aylanib, ularning turlari ko'paymoqda, ishlab chiqaruvchilarning tashqi iqtisodiy aloqalardagi ahamiyati oshmoqda va bu munosabatlarni o'rnatish hamda tartibga solishda davlatning ishtiroki zarurdir. Mamlakatimizning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan korxonalariga alohida e'tibor qaratish, iqtisodiy jarayonlarning tarkibiy tuzilishini muttasil takomillashtirib borish zaruratini kuchaytirmoqda.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish, xususiy mulk muhofazasi va kafolatlarining huquqiy mexanizmlarini yanada mustahkamlash, tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, investitsiya muhiti va ishbilarmonlik holatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar izchil ravishda amalga oshirilmoqda.

Mustaqillik yillarida xususiy mulkdorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini, davlat, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari bilan o'zaro munosabatlarda tadbirkorlarning huquqlari ustuvorligini, xususan, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga asossiz aralashuvlardan ishonchli huquqiy kafolatlarni ta'minlab beradigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi.

O'tgan 2018-yilning o'zida yurtimizda 48,9 mingdan ortiq yangi tadbirkorlik subyekti tashkil qilindi. Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning 59,4 foizdan ortig'i kichik va xususiy biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan bo'lib, ular respublikamiz mehnatga layoqatli aholisining 78,3 foizdan ortig'ini ish bilan ta'minlamoqda.¹⁹

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi 2018-yil ma'lumotlari


Shu bilan birga, 2018-yildagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”²⁰gi farmoni bo‘yicha belgilangan vazifalarni ijro etish, jumladan, biznes sohasi vakillari va davlat organlari o‘rtasida samarali muloqot va foydali hamkorlik mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish, xususiy mulk va tadbirkorlikning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli muhofaza qilish kafolatlarini kuchaytirish, viloyatlar va tumanlarda biznes-muhitni takomillashtirish masalalari bo‘yicha, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga, avvalo, viloyatlar, shahar va tumanlarda sifatli davlat xizmatlari taqdim etilishini ta‘minlash davlat organlari va tadbirkorlik tuzilmalarining o‘zaro hamkorligini, ayniqsa, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini endi boshlagan davrlarda ularni qo‘llab-quvvatlashning yangi samarali tizimini yaratishni taqozo etadi.

Aholini tadbirkorlik faoliyatiga yanada faol jalb etish va xususiy biznesini boshlashga, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyatining barcha bosqichlarida yuzaga kelayotgan muammolarni ortiqcha sarsongarchiliklarsiz va qog‘ozbozliksiz tezkor hal etishga xizmat qiladigan bozor infratuzilmasining barqaror ishlashi va yanada rivojlanishini muvofiqlashtiruvchi amaliy mexanizmning samarali tizimini yaratish zarur.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va mahsulot sifatini diversifikatsiyalashda asosiy ustuvor yo‘nalish bo‘lgan ushbu sohaning tarkibiy tuzilishi, tabiiy resurslar salohiyati, geografik joylashuvi, mehnat resurslari hamda omillaridan samarali foydalanishga ta‘sir ko‘rsata oladigan davlatning qo‘llab-quvvatlash siyosati juda zarur bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash umumiy tarzda quyidagi yo‘nalishlardan iborat (1.3.1-chizma):

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5490-sonli farmoni 27-iyul 2017—yil



1.3.1-chizma. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari ²¹

Davlat bunday vazifalarni o'z mexanizmini qo'llash orqali amalga oshiradi. Bozor sharoitida milliy iqtisodiyotning yuqori sur'atlarda o'sishiga erishish va korxonalarining barqaror holatini yaxshilashda qo'llab-quvvatlashning barcha mexanizmlari ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ma'muriy-huquqiy muhitning ham o'рни, ham roli katta va o'z ta'sir-e'tibori bo'yicha iqtisodiy mexanizmlarni to'ldirib keladi.

²¹ Murodov N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari. Darslik. T.: „Iqtisodiyot“, 2012. – 42-b.

Keyingi yillarda muhtaram yurtboshimizning bevosita tashabbuslari bilan hukumatimiz tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish borasida bir necha yo'nalishlarda tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi va bu yo'nalishlarni shartli ravishda o'n bitta qismga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq. Ular quyidagilar:

Birinchi yo'nalish – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun yanada qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish. Bu borada bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi:

- tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesga ko'proq erkinliklar berish;
- davlat boshqaruv vazifalari va turli ruxsat berish me'yorlarini qisqartirish, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish;
- moliya-kredit hamda xomashyo resurslari, mahsulotlarga davlat buyurtmasidan foydalanishning bozor dastaklari va mexanizmlarini joriy etish;
- mol yetkazib beruvchi korxonalar va barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar, xaridorlar bilan kooperatsion aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash va h.k.

Ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha qabul qilinayotgan choralar samaradorligi va natijadorligi yetakchi xalqaro moliyaviy tashkilotlar va reyting agentliklarining ijobiy baholarida xolisona aks ettirilmoqda. Jahon bankining "Biznesni yuritish — 2018" hisobotida O'zbekiston tadbirkorlik uchun yanada qulay sharoitlar yaratish bo'yicha islohotchi davlatlar qatorida jahonda birinchi o'ntalikka kirdi.²²

Ikkinchi yo'nalish – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirishga yo'naltirilgan me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish. Bu borada ham bir qator ishlar amalga oshirildi va bugungi kunda ham islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, bevosita kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga taalluqli bo'lgan 700ga yaqin me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.04.2018 dagi "Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini yanada qisqartirish va soddalashtirish, shuningdek, biznes yuritish shart-sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5409 sonli farmoni.

Uchinchi yo'nalish – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatiga davlat va nazorat tuzilmalarining aralashuvini keskin kamaytirish hisoblanadi.

Davlat va nazorat idoralarining korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga aralashuvini keskin kamaytirish hamda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy erkinligi va huquqlarini sezilarli ravishda kengaytirish bo'yicha choralar qabul qilindi. Yangi tashkil qilingan kichik korxonalar va mikrofirmalarni rejali soliq tekshiruvlaridan ozod etish muddati ikki yildan uch yilga uzaytirildi. Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'layotgan, shuningdek, ishlab chiqarishning barqaror o'sish sur'atlari va rentabelligini ta'minlayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarida uch yil davomida soliq tekshiruvlarini o'tkazish taqiqlandi.²³

To'rtinchi yo'nalish – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish tartibini soddalashtirish va faoliyat yuritishning moddiy-texnik sharoitlarini ta'minlashdir. Bu yo'nalish bo'yicha hukumatimiz tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ko'pgina imtiyoz va qulayliklar yaratilib berildi. Xususan, mahsulotlarni gigiyenik sertifikatining amal qilishi cheklanmagan muddatga o'tkazildi, fitosanitariya xulosalarini berish muddatlari qisqartirildi, elektr va issiqlik tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlarni bajarish muddatlari 1 oydan 3 kungacha qisqartirildi, binolarni turar joydan noturar joy toifasiga o'tkazish jarayoni soddalashtirildi, davlat mulkidagi bo'sh binolarning ijara haqlari pasaytirilishi natijasida 81 foizi tadbirkorlik subyektlariga ijaraga berildi, tashqi reklamani joylashtirish qiymati ayrim viloyatlarning qishloq joylari uchun 50 foizgacha pasaytirildi va h.k.

Beshinchi yo'nalish – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga soliq va boshqa to'lovlar borasida yengilliklar yaratish, hisobot topshirish tizimini takomillashtirish sanaladi. Tadbirkorlar 2019-yil 1-yanvardan boshlab bir kalendar

²³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.08.2011yildagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4354-son farmoni

yilda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi miqdoriga qarab, jumladan:

- 100 mln. so‘mgacha, qat’iy belgilangan soliqni;
- 100 mln. so‘mdan 1,0 mlrd. so‘mgacha tashkil etganda, 4 foizlik stavkada yagona soliq to‘lovini;
- 1,0 mlrd. so‘mdan oshganda yuridik shaxslar tomonidan to‘lanishi nazarda tutilgan soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘laydilar.²⁴

Qishloq tumanlarida (bundan aholi soni 5 ming kishidan ko‘p bo‘lgan aholi punktlari mustasno) sartaorshxona xizmatlarini, yakka tartibdagi buyurtmalar bo‘yicha kiyim tikish xizmatlarini, poyabzal ta‘mirlash xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha faoliyatni tashkil etgan, shuningdek, jamoat hammomlarini tashkil etgan yakka tartibdagi tadbirkorlar 2023-yil 1-iyulgacha barcha turdagi soliqlar to‘lashdan ozod etildi.

Oltinchi yo‘nalish – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish hisoblanadi. 2018-yilda O‘zbekiston tijorat banklarida 1,04 milliard dollar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun xorijiy kredit liniyalari o‘zlashtirildi, bu 2017-yilga nisbatan ikki barobar ko‘pdir. Xorijiy banklar tomonidan taqdim etiladigan kreditlar hajmi 2018-yilda 397,9 mln. AQSh dollarini, xalqaro moliya tashkilotlariniki esa 641,4 mln. AQSh dollarga yetdi. 2018-yilda asosiy kreditorlar Tiklanish va Taraqqiyot Xalqaro banki 220,7 mln. AQSh dollar, Xitoy davlat taraqqiyot banki 161,8 mln. AQSh dollar, Osiyo taraqqiyot banki 179.5 mln. AQSh dollar, "Commerzbank" (Germaniya) - 151,6 mln AQSh dollar kabi xalqaro moliya institutlari va xorijiy banklarning ulushlari hisoblanadi. Xorijiy kredit liniyalarini rivojlantirish sohasida eng faol bank -Asaka banki (\$ 234.9 million), Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki (\$ 216,5 mln.) va Hamkorbank (\$ 131.7 mln).²⁵

Yettinchi yo‘nalish – kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish sanaladi. Jumladan, 2018-yilda

²⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.12.2018 y.dagi“O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilga asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021-yillarga byudjet mo‘ljallari to‘g‘risida”gi PQ-4086 sonli qarori.

²⁵ www.uzdaily.uz 26/01/2019

ushbu sohada umumiy investitsiyalar hajmining 34,9%i, ya'ni 37 504,7 mlrd.so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi va 2017-yilga nisbatan o'sish sur'ati 120,4 %ni tashkil qildi.

“2018-yil Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom va Osiyo taraqqiyot banklari, boshqa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikdagi investitsiyalar hajmi 8,5 milliard dollarni tashkil etdi. 2019-yilda barcha manbalar hisobidan qariyb 138 trillion so'mlik yoki 2018-yilga nisbatan 16 foiz ko'p investitsiyalarni o'zlashtirish mo'ljallanmoqda.Bu borada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdori joriy yilga nisbatan qariyb 1,5 barobar oshirilib, 4,2 milliard dollarga yetkaziladi. Natijada 142 ta zamonaviy korxonalar ishga tushiriladi.”²⁶

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashning **sakkizinchi yo'nalishi** – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi ishtirokini kengaytirishdir. Bu borada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi unchalik salmoqli darajada emas.

Navbatdagi **to'qqizinchi yo'nalish** esa ilg'or ilm va fan yutuqlariga asoslangan venchur tadbirkorligini va xususiy biznesini rivojlantirishga keng yo'l ochib berish sanaladi. Shu o'rinda venchur tadbirkorligi to'g'risida qisqacha ta'rif berib o'tsak. Venchur tadbirkorligi (венчурное предпринимательство, venture enterprise) – bu hozirgi zamon tadbirkorlik turlaridan biri bo'lib, ilmiy tadqiqotlar, yangi ixtirolarni tatbiq etish hamda yirik firmalar buyurtmalari, davlat shartnomalarini bajarish bilan shug'ullanuvchi faoliyatdir.

Tadbirkorlik faoliyati va kichik biznesni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashning keyingi **o'ninchi yo'nalishi** esa, aholi va o'rta sinf mulkdorlari daromadlarini shakllantirish asosi bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish, bu sohadagi mavjud muammolarni hal etish, yoshlar, avvalambor, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish uchun zarur sharoitlar yaratish hisoblanadi.

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi

Respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashning **o'n birinchi yo'nalishi** kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilayotgan imtiyozlar va qulay sharoitlar tizimini yanada rivojlantirish hisoblanadi. Jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilayotgan imtiyozlar, preferensiyalar va xo'jalik yuritishning qulay sharoitlarini yaratish, resurslar bilan ta'minlanish mexanizmlarini takomillashtirish, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish to'g'risidagi, axborot ta'minoti va maslahat berishning yaxlit integratsiyalashgan tizimini yanada rivojlantirish kabilar mazkur yo'nalishdagi eng muhim vazifalardan sanaladi.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizning tayanch sohasiga aylangan kichik biznesning yanada taraqqiy ettirish, ish bilan band bo'lmagan aholi qatlamini tadbirkorlikka jalb qilish orqali ularni bandligini ta'minlash masalasi boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan bir qatorda, bank - moliya tizimi zimmasiga ham yuksak mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi.

Alohida ta'kidlash kerakki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgunga qadar bank va banklar bilan bo'ladigan turli iqtisodiy munosabatlar unchalik oshkora etilmas edi. Jahon xo'jaligining muhim xo'jalik yuritish qismi bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini barcha faoliyati banklar bilan bog'langanligi bugungi kunda hammaga ma'lumdir. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlarda, masalan, AQSHda bank tizimining faoliyati nihoyatda rivojlangan bo'lib, tadbirkorlikning aktiv iqtisodiy faoliyat yuritishida banklar barcha mulk shaklidagi korxonalariga kompleks ravishda xizmat ko'rsatadi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari o'z faoliyatida turli banklar bilan muomalada bo'ladi. Bu jarayon oldingilaridan farqli ravishda ancha murakkab hisoblanadi, chunki avvalgi jarayonlar, asosan, korxonalar orqali bank o'z faoliyatini olib borganligi bilan xarakterlanadi. Tadbirkorlik faoliyati shakllanishi tufayli banklar xususiy mulk egalari va kichik korxonalar faoliyati bilan bog'liq operatsiyalarni bajarishga o'z mablag'larini safarbar etib boradi.

Tadbirkorlarning banklar bilan bo'ladigan operatsiyalarida ko'pgina erkinliklar berilganligi shunda namoyon bo'ladiki, xususiy tadbirkor o'z jamg'armasini O'zbekistonning turli banklaridagi o'z hisob schyotida saqlash, kredit va kassa operatsiyalarini bajarish huquqiga ega. Banklar bilan tadbirkorlar o'rtasidagi munosabatlarda amal qilayotgan qonun va shartnomalarga asosan pul o'tkazish yo'li bilan hisob-kitoblar olib borish mumkin. Banklar tadbirkor schyotida pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va boshqa muhim ahamiyatga ega hujjatlarni saqlashni kafolatlab beradi.

Hozirgi kunda tadbirkorlik faoliyatini mikromoliyalash tizimi ham keng yo'lga qo'yilmoqda. Bu borada respublikamizda mikromoliyalashtirishni rivojlantirish uchun zarur me'yoriy-huquqiy baza yaratilgan. So'nggi yillarda respublikamizda qabul qilingan Farmon va Qarorlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar, yengilliklar, ko'plab imtiyoz va imkoniyatlar yaratildi. Ularning kredit resurslaridan foydalanishi kengaytirilib, biznes muhiti yaxshilandi. Xususan:

- faoliyatini endi boshlayotgan tadbirkorlar uchun mikromoliyalash xizmatlaridan foydalanish qulayliklarini, yo'nalish va hajmlarini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi, unda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida yangi ish o'rinlari tashkil etishga tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan mikrokreditlarning manzilliligini ta'minlashni kuchaytirish, birinchi navbatda kam ta'minlangan oilalarni, ayniqsa shaharlarda, eng avvalo, yakka tartibdagi va oilaviy tadbirkorlik sohasiga, kasanachilikka, qishloq joylarda esa shaxsiy tomorqa xo'jaliklari asosida iqtisodiy faollikka jalb etishga qaratilgan tadbirlar belgilab olindi;

- 2017-yilning 5-sentabridan boshlab, O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari joriy xalqaro operatsiyalar (tovar, ish va xizmatlar importi, kreditlarni qaytarish, xizmat safari xarajatlarini to'lash va boshqa savdo xarakteriga ega bo'lmagan o'tkazmalar) bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun tijorat banklarida chet el valyutasini cheklovsiz sotib olishlariga ruxsat berildi;

- mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha eksportchi korxonalarining chet el valyutasidagi tushumini majburiy sotish bo'yicha talab bekor qilindi;

- yangi ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxs tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar va oilaviy tadbirkorlik subyektlariga faoliyatini amalga oshirish uchun olingan tovarlarni garov sifatida hisobga olgan holda eng kam ish haqining 20 barobarigacha miqdorda mikrokreditlar ajratish, ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng kam ish haqining 60 barobarigacha miqdorda mikrokreditlar kreditlashga oid qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ta'minot turlari bilan bir qatorda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining kafilligi asosida ajratish amaliyoti joriy qilindi;

- muayyan mehnat turlari bilan shug'ullanish istagida bo'lgan kam ta'minlangan oilalarga hunarmandchilik faoliyati uchun tikuv mashinalari, gazlamalar va sarflanadigan materiallar, anjomlar, shuningdek aholining shaxsiy tomorqa uchastkalarini rivojlantirish (ixcham issiqxonalarni tashkil etish, chorva mollari, parrandalarni sotib olish, qo'ralar va parrandaxonalarni qurish, bog'dorchilik anjomlari va asbob-uskunalarini sotib olish) uchun imtiyozli va qulay shartlarda mikrokreditlar ajratilishi mexanizmi yo'lga qo'yildi. Muayyan mehnat turlari bilan shug'ullanish istagida bo'lgan kam ta'minlangan oilalarga mikrokreditlar banklar tomonidan qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz, 6 oygacha bo'lgan imtiyozli davr bilan, 3 yildan ko'p bo'lmagan muddatga eng kam ish haqining 100 baravari miqdorigacha ajratilishi belgilandi²⁷;

- tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining kelishilgan hajmda kreditlar ajratish haqidagi arizalarini ko'rib chiqish muddati 3 bank ish kunidan oshmaydigan muddat bilan belgilandi;

- tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishda kreditning umumiy summasida qarz oluvchining garov ta'minotini rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olish huquqi berildi;

- qarz oluvchilar tomonidan kredit qaytarilishining ta'minoti sifatida taqdim qilingan mol-mulkni uning xususiyatidan kelib chiqqan holda kreditning qaytarilgan qismiga nisbatan garovdan chiqarish huquqiga ega bo'ldi.

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kam ta'minlangan oilalarni bandlik bilan ta'minlash uchun tijorat banklari tomonidan mikrokreditlar ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 857-son qaror 20-oktabr 2017-yil

II BOB. CHEKI “HAMKORBANK” ATBDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA XIZMAT KO'RSATISH VA KREDITLASH TAHLILI

2.1. Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va tahlili

So'nggi yillarda mamlakatimizda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish, oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, yoshlarning biznes g'oyalarini amalga oshirishga har tomonlama ko'maklashish borasida qator choralar ko'rilmogda.

Respublika hududlarida aholining daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug'ullanishiga, oilaviy tadbirkorlik rivojlanishiga har tomonlama ko'maklashish va mazkur yo'nalishdagi ishlarni tizimli tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2019-yil 7-martda “Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”²⁸gi PQ-4231-sonli qarorida aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar ijrosini tashkil etish va muvofiqlashtirish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimlari, tuman (shahar) hokimlarining birinchi o'rinbosarlari rahbarligida, viloyat, tuman (shahar) iqtisodiyot va sanoat, bandlik, moliya, investitsiya, soliq, statistika bo'linmalari, hududiy Savdo-sanoat palatasi, tijorat banklari, “Mahalla” xayriya jamoat fondi, Yoshlar ittifoqi va O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi hududiy bo'linmalari rahbar va xodimlaridan iborat tarkibda “Oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash markazlari” tashkil etilishi belgilandi²⁹.

Hududlarda oilalarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishga, ularning barqaror va qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'lishiga, milliy hunarmandchilik yanada rivojlanishiga, xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslari amalga oshirilishiga, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g'oyalari va loyihalari ro'yobga chiqishiga hamda shu asosda aholining bandligi ta'minlanishiga zamin

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning PQ-4231-sonli qarori 07.03.2019-y.

²⁹ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2019-y., 07/19/4231/2724-son

yaratilmoqda. Buning natijasida kichik biznes subyektlarini soni ortmoqda. Quyida Andijon hududida jami ro'yxatga olingan va yangi tashkil qilingan kichik biznes subyektlari tahlilini ko'rishimiz mumkin. (2.1.1 -jadval)

2.1.1-jadval

Andijon viloyatida jami ro'yxatga olingan va yangi tashkil qilingan kichik biznes subyektlari soni

	Yillar			O'zgarish (2016-2018 y)	
	2016	2017	2018	+;-	%
	Jami ro'yxatga olingan kichik biznes subyektlari soni	20 580	21 631	22 287	1707
Yangi tashkil qilingan kichik biznes subyektlari	2207	2476	3131	924	141,9
Har 1000 kishiga to'g'ri keladigan kichik biznes subyektlari birligi	10,9	11,7	11,9	1,0	109,2


Manba: Andijon viloyati Statistika boshqarmasi yillik ma'lumotlari

Viloyatimizda yildan-yilga ro'yxatdan o'tayotgan kichik biznes subyektlari soni ortib bormoqda. Jumladan, 2018-yilda jami kichik biznes subyektlari soni 22 287 tani tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2016-yilga nisbatan 8,3%, 2016-yilga nisbatan esa 3% ga ortiqroqdir. Umumiy holda 3 yillik ko'rsatkichlarni ko'radigan bo'lsak, 2018-yilda yangi tashkil qilingan kichik biznes subyektlari soni 3 131 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2016-yilga nisbatan 41.9% ga, 2017-yilga nisbatan esa 26% ga ko'pdir. Ya'ni qolgan yillarga nisbatan oxirgi 3 yilda kichik biznes subyektlari soni sezilarli ortgan.

Andijon viloyatida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan xususiy sektor vakillari soni 2018-yilda 11.9 tani tashkil etdi va ushbu ko'rsatkich 2016-yilga nisbatan 9,2%ga, 2017-yilga nisbatan 1.7% ga ortgan.

Viloyatimizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni

jadal rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o`shish sur`atlarini ta`minlash imkonini bermoqda. Kichik biznes subyektlarining yalpi hududiy mahsulotidagi ulushini quyidagi diagrammada ko`rishimiz mumkin.



Manba: Andijon viloyati Statistika boshqarmasi 3 yillik ma'lumotlari

2.1.1-diagramma. Kichik biznes subyektlarining YaHMdagi ulushi (%)

Yuqoridagi diagrammada kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning YaHM dagi ulushi 3 yillik tahlilini ko`rishimiz mumkin. 2018-yilda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning YaHM dagi ulushi 73.4% ni tashkil etib, bu ko`rsatkich 2016-yilga nisbatan 7.4% ortiq natijani, 2017-yilga nisbatan 6.5% ga past natijani ko`rsatdi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`g`risida"gi PF-5242-son, 2018-yil 27-iyundagi " "Yoshlar-kelajagimiz" davlat dasturi to`g`risida"gi PF-5466-son Farmonlari, 2018-yil 26-apreldagi "Fermer, dehqon xo`jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida"gi PQ-3680-son, 2018-yil 7-iyundagi "Har bir oila - tadbirkor" dasturini amalga oshirish to`g`risida"gi PQ-3777-son va 2018-yil 14-iyuldagi "Aholi bandligini ta`minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va

samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3856-son qarorlari asosida imtiyozli kreditlar ajratilib kelinmoqda. Birgina "Har bir oila – tadbirkor" dasturi uchun respublika miqyosida joriy 2019-yil uchun maqsadli jamg'armalardan qo'shimcha 5 trillion so'm mablag' yo'naltirildi. Umuman tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash uchun joriy 2019-yilning birinchi choragida tijorat banklari orqali barcha hududlarga 6 trillion 200 milliard so'm yoki 700 million dollardan ziyod resurslar ajratildi. O'tgan 2018-yilda davlatimiz rahbari Andijon viloyatiga tashrifi chog'ida har bir oilalardagi turmush madaniyatini shakllantirish, yashash sharoitini yaxshilash maqsadida viloyatda "Har bir oila – tadbirkor" dasturini ishlab chiqish bo'yicha topshiriq bergandi. Ushbu dastur ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hamda bir qancha xorijiy moliya institutlari tomonidan 100 million AQSh dollari yoki 800 milliard so'm miqdoridagi mablag' ajratildi. Ushbu mablag' aholining chorvachilik, quyunchilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik yo'nalishlaridagi faoliyatlarini tashkil etish, issiqxonalar qurish, bog' va tokzorlar yaratish, sartaroshlik, kosmetologiya xizmati, kosibchilik, tunukasozlik, yog'och va alyumin profildan eshik va romlar tayyorlash, zargarlik, avtoservis ustaxonalari ochish, qandolatchilik mahsulotlari ishlab chiqarish kabi 20 dan ortiq yo'nalishlarga yo'naltirildi. Buning natijasida iqtisodiy faoliyat turlarida kichik biznes subyektlarining mahsulot hajmi ortib bordi. Quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin.(2.1.2-jadval)

2.1.2-jadval

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik biznes subyektlarining mahsulotlari
(xizmatlari) hajmi (mlrd.so'm)**

T/r	Sohalar	Yillar			O'zgarish (2016-2018 y.)	
		2016	2017	2018	+;-	%
1	Sanoat	3880,7	4551,4	5349,3	1468,6	137,8
2	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5297,5	7392,1	8065,0	2767,5	152,2
3	Qurilish ishlari	1548,0	1661,6	1845,7	297,7	119,2
4	Chakana tovar aylanmasi	6439,7	7483,1	9245,9	2806,2	143,6
5	Investitsiyalar	1088,8	1210,6	2180,9	1092,1	200,3
6	Eksport (mln. AQSh dollar)	256,7	222,7	252,2	-4,5	↓1,8
7	Import (mln. AQSh dollar)	139,4	217,0	298,2	158,8	213,9

Manba: Andijon viloyati Statistika boshqarmasi yillik ma'lumotlari

Kichik biznes subyektlari sohalar bo'yicha yuqoridagi jadvalning tahlilini ko'radigan bo'lsak, sanoat sohasida 2018-yil ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 1468.6 mlrd. so'mni tashkil qilib, bu ko'rsatkich 2016-yilga nisbatan 1468.6 mlrd. so'mga yoki 37,8% ga ortgan. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohalarida 2018-yil jami tovar-xizmatlar hajmi 2767.5 mlrd. so'mlik qiymatni tashkil etib, ushbu ko'rsatkich 2016-yilga nisbatan 52,2% ga, 2017-yilga nisbatan 9% ga ortdi. Qurilish sohasini ko'radigan bo'lsak, 2018-yil 1845.7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2016-yilga nisbatan 19,2% ga, 2017-yilga nisbatan esa 11% ga ortdi. Chakana

tovarlar aylanmasi 2018-yilgi ko'rsatkichlari 2016-yilga nisbatan 43,6%, 2017-yilga nisbatan 23% ijobiy natijani ko'rsatgan.


Mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan chet el investitsiyalarini jalb qilish sohasiga katta urg'u berilmoqda. Ushbu islohotlar natijasi o'laroq so'nggi yillarda sezilarli natijalarga erishildi. Andijon hududida kichik biznes subyektlariga 2018-yilda kiritilgan investitsiyalar hajmi 1092.1 mlrd. so'mni tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich 2016-yilga nisbatan 2 barovarga oshdi. 2017-yilga nisbatan 1.8 barovarga o'sdi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan eksport qilingan tovarlar hajmi 2018-yil 252.2 mln AQSh dollarini tashkil qildi. Bu ko'rsatkich 2016-yilga nisbatan 1,8% ga kam, 2017-yilga nisbatan 13% ga ko'pdir. Ushbu o'rinda 2017-yil sentabr oyida qabul qilingan erkin valyuta konvertatsiyasi bo'yicha qarorni inobatga olishimiz zarur. Chunki AQSh dollarining o'zbek so'miga nisbatan ekvivalenti sezilarli o'zgargan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida eksport salohiyatini oshirish ustuvor vazifa ekanligini ta'kidlagan: "... Iqtisodiyotimizni jahon bozoriga integratsiya qilish va eksportni qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifadir. Kelgusi yili eksport hajmini 30 foizga oshirib, 18 milliard dollarga yetkazishni maqsad qilib qo'ymoqdamiz. Biz eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotga o'tishimiz, ichki bozorda raqobat muhitini shakllantirishimiz zarur."³⁰

Import hajmi so'nggi 3 yil ichida ancha ortdi. 2018-yil import hajmi 298.2 mln. AQSh dollarini tashkil qilib, 2016-yilga nisbatan 113,9% ga, 2017-yilga nisbatan 37% ga ortdi.

Quyidagi diagramma orqali esa kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlaridagi ulushini ko'rishimiz mumkin.(2.1.2-diagramma)

³⁰O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr



Manba: Andijon viloyati Statistika boshqarmasi yillik ma'lumotlari

2.1.2-diagramma. Iqtisodiy faoliyat turlarida kichik biznes subyektlarining ulushi (%)

Andijon iqtisodiyotiga investitsiyalar 2016-yilda 1 883,7 mlrd. so'm, 2017-yilda 2 237,7 mlrd. so'm, 2018-yilda esa 4053,7 mlrd. so'm kiritilgan bo'lib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kiritilgan investitsiyalar ulushini kamayganini kuzatishimiz mumkin. (2.1.3-diagramma)



Manba: Andijon viloyati Statistika boshqarmasi yillik ma'lumotlari

2.1.3-diagramma. Kichik biznes subyektlariga kiritilgan investitsiyalar ulushi (%)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kiritilgan investitsiyalar ulushini kamayganiga qator sabab va omillar to'siq bo'lib kelmoqda. Iqtisodiyotga xorijiy mablag'larni jalb etishda davom etib kelayotgan past ko'rsatkichning sabablarini aniqlash maqsadida, Tashqi ishlar vazirligi O'zbekistonda ishlash tajribasiga ega xorijiy sarmoyadorlar, biznesmenlar va moliya tashkilotlarining ekspertlari o'rtasida so'rovnoma o'tkazgan. Ular O'zbekistonga sarmoya oqimini to'xtatib qo'yayotgan qator omil va sharoitlarning ba'zilar sifatida quyidagilarni sanab o'tgan:

- valyuta konvertatsiyasi;
- bank-kredit tizimining takomillashmaganligi;
- sarmoyadorlar huquqlarining zaif himoyasi va yetarli darajada samarali bo'lmagan sud tizimi;
- ma'muriy-byurokratik to'siqlar (ko'plab xorijiy kompaniyalar o'z faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya va ruxsat olish tartib-qoidalaridan norozi);

- past investitsiya reytingi ³¹

Xorijiy sarmoyalarni jalb etish muammolarini har tomonlama o'rganilib, O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Senati va Tashqi ishlar vazirligining Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda, vazirlik va idoralar ishtirokida investitsiya muhitini yanada takomillashtirish, iqtisodiyot tarmoqlari va mamlakat hududlariga xorijiy sarmoya hamda zamonaviy texnologiyalar jalb etilishini rag'batlantirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar davlat dasturi loyihasi ishlab chiqildi. Shu sababli ham yurtboshimiz 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida investitsiyalarini oshirishga alohida to'xtalib o'tdi: "...investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi. Biz iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobiy natijaga erishish mumkin."³²

Bugungi kunda Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini izchil amalga oshirish doirasida, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari va yer uchastkalari negizida 6 ta kichik sanoat zonalarini faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-sentabrda 741-sonli "Tadbirkorlik subyektlarini Andijon viloyatining kichik sanoat zonalariga jalb etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq viloyatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ko'plab imkoniyatlar yaratildi.

³¹ O'zbekiston TIV vaziri Abdulaziz Kamilovning Oliy Majlis senati yalpi majlisidagi nutqi. Toshkent shahri, 27-may 2017-y

³² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi 28.12.2018-y.

2.2. ChEKI "Hamkorbank" ATB da kreditlash tahlili

Mamlakatimizda tadbirkorlik sohasini rivojlantirishga katta e'tibor berilib, tijorat banklari tomonidan turli xizmatlar, ayniqsa kreditlash orqali ular faoliyatini moliyaviy jihatdan qo'llash davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab olinib, bu sohada katta ustuvorlik berilmoqda. Bu borada tadbirkorlikni kreditlash hajmini oshirish, kreditlash shartlarini soddalashtirish, ularga bank xizmatlaridan foydalanish sohasida qo'shimcha imtiyoz va qulayliklar yaratish bo'yicha chora tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Shunday banklardan biri chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" aksionerlik tijorat bankidir. "Hamkorbank" aksionerlik tijorat banki 1991-yil 1-sentabrda dastlab "Andijonbank" ATB nomi bilan o'z faoliyatini boshlagan. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining 2000-yil 13-maydagi qaroriga asosan bank nomi "Hamkorbank" aksiyadorlik tijorat banki nomiga o'zgartirilgan bo'lib, aksiyadorlik jamiyati shaklida cheklanmagan muddatga faoliyat yurita boshlagan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2000-yil 24-iyulda 64-son bilan ro'yxatga olingan. Bank 28 yil ichida respublikaning barcha ma'muriy mintaqalarini qamrab olgan keng tarqalgan filiallar tarmog'ini shakllantirdi. Hozirda bank 190 dan ortiq xizmat ko'rsatish shaxobchalariga ega bo'lib, 42 ta filial, 168 ta mini-bankka ega. Shuningdek, bank 6 ta sho'ba kompaniyasini tashkil etdi va ularning faoliyatini yo'lga qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining "Axbor-reyting" va "Mudis" xalqaro reytingning agentliklari tomonidan "Hamkorbank" ATBning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari barqaror deb baholagan. Bankning 3 yillik moliyaviy holatini quyidagi jadvalda ko'rishingiz mumkin. (2.2.1-jadval)

2.2.1-jadval

“Hamkorbank” ATBning moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlili (ming so‘mda)

Ko‘rsatkichlar	Yillar			O‘zgarish (2016-2018)	
	2016	2017	2018	+;-	%
Aktivlar	2 966 964 730	3 995 970 837	5 433 750 960	2 466 786 230	183,1
Majburiyatlar	2 665 502 042	3 587 706 127	4 893 325 726	2 227 823 684	183,6
O‘z kapitali	301 462 688	408 264 710	540 425 260	238 962 572	179,3

Manba: «Hamkorbank» ATBning yillik hisobotlari asosida hisoblandi

Jadval ma’lumotlariga qaraganda “Hamkorbank” ATBning moliyaviy holati yildan-yilga barqarorlashayotgani ko‘rishimiz mumkin. 2018-yili aktivlari 2016-yilga nisbatan 83,1 % ga, 2017-yilga nisbatan 35% ga ko‘paygan.

2018-yili majburiyatlari 2016-yilga nisbatan 83,6 % ga, 2017-yilga nisbatan esa 36% ga ko‘paygan.

2018-yili o‘z kapitali 2016-yilga nisbatan 79,3 % ga, 2017-yilga nisbatan esa 32% ga ko‘paygan. Korporativ mijozlarga xizmat ko‘rsatish sohasi bilan bir qatorda chakana segmentda ham yuqori o‘sish sur‘atlariga erishgan.. Foizli daromadlari oshishi hisobiga bankning taqsimlanmagan foydasi ham yuqori chiqqan. Foizli daromadlari mijozlarga moliyaviy ijara bo‘yicha debitorlik qarzlari bo‘lgan kreditlar va boshqa banklardagi aktivlarining foiz stavkasi oshganligi sababli ko‘paygan.

ChEKI “Hamkorbank” ATBning samarali faoliyat yuritayotgan filiallardan biri Nodirabegim filiali bo‘lib, u 1995-yil noyabr oyida tashkil qilingan. 24 yil mobaynida ushbu filial o‘z mijozlariga beminnat xizmat qilmoqda. Bugungi kunda tarkibida 5 ta minibanki mavjud. Biz tahlilni shu filial ko‘rsatkichlari yordamida amalga oshiramiz.

Bank faoliyatining asosiy yo‘nalishlari O‘zbekiston iqtisodiyotining real sektorini kreditlash, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va yangi ish

o‘rinlarini yaratishga ko‘maklashish maqsadida texnik va texnologik modernizatsiyalash bo‘yicha loyihalarni moliyalashtirishdan iborat.

“Hamkorbank” ATBda quyidagi kredit turlari mavjud:

- Mikro kreditlar
- Kichik kreditlar
- Agrokreditlar
- Korporativ kreditlar
- Xorijiy kredit liniyalari hisobidan kreditlar
- Bank kafolati
- Lizing

“Hamkorbank” ATBda ajratilgan kreditlar tahlilini 3 yilligini ko‘rib chiqamiz. (2.2.2-jadval)

2.2.2-jadval

Bank tomonidan ajratilgan kredit turlari tahlili (mln. so‘mda)

T /r	Ajratilgan kreditlar	Yillar			O‘zgarish (2016-2018)	
		2016	2017	2018	+ ; -	%
1	Qishloq joylarga ajratilgan kreditlar	54 033	65 269	81 979	27 946	151,7
2	Mikrokreditlar	9 208	12 225	16 893	7 685	183,5
3	Lizing	5 934	6 290	6 924	987	116,7
4	Agrokredit	5 723	6 230	7 647	1924	133,6
5	Ipoteka	1 058	1 487	2 184	1126	206,4
6	Iste‘mol krediti	4 860	5 287	7 160	2300	147,3
7	Ajratilgan imtiyozli kreditlar	1 230	1 504	2 054	824	167
8	Boshqa ajratilgan kreditlar	16 339	24 563	33 631	17 292	205,8
	Jami ajratilgan kreditlar:	98 385	112 855	158 472	60 087	161,1

Manba: “Hamkorbank” ATBning yillik hisobotlari

Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, boshqa tijorat banklari qatori "Hamkorbank" ATBda ham yil sayin kredit berish ko'lamini o'smoqda. 2018-yilda berilgan kredit miqdori 158 472 mln so'mni tashkil qilib, bu ko'rsatkich 2017-yilga nisbatan 40,4% ga, 2016-yilga nisbatan esa 61,1% ga o'sgan.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligining mexanizatsiyalash va klaster tizimiga o'tishi munosabati bilan fermer va dehqon xo'jaliklariga berilayotgan kredit ko'lamini oshmoqda. 2018-yilda berilgan kredit miqdori 81 979 mln so'mni tashkil qilib, bu ko'rsatkich 2017-yilga nisbatan 26% ga, 2016-yilga nisbatan esa 51,7% ga o'sgan. O'tgan 2018-yil qishloq xo'jaligi sohasiga sezilarli darajada ko'p kredit mablag'lari berilgan.

Mikrokreditlar ko'lamini 2018-yil 16 893 mln so'mga yetib, 2016-yilga nisbatan 83,5% ga, 2017-yilga nisbatan 38% ga ortgan. Mikrokreditlar bank uchun eng serdaromad kreditlar sirasiga kirib, 28% yillik stavkada 3 yil muddatga, EKIHning 1000 barobarigacha bo'lgan miqdorda beriladi. Ya'ni stavkasi baland, qaytarilish muddati qisqa va summasi baland emas. Bu kreditlar tez so'ndiriladi va bank uchun serdaromad hisoblanadi.

Iste'mol kreditlari hajmi 2018-yil 7 160 mln so'mni tashkil qildi va 2016-yilga nisbatan 47,3% ga, 2017-yilga nisbatan 35% ga oshgan. Iste'mol kreditlari EKIHning 50 barobarigacha miqdorda 1 yildan 3 yilgacha muddatda 24-35% li stavkada beriladi. Shu qatorda lizing xizmati 2018-yil 6 924 mln so'mni tashkil qildi va 2016-yilga nisbatan 16,7% ga, 2017-yilga nisbatan 10% ga oshgan. Agrokredit hajmi 2018-yil 7 647 mln so'mni tashkil qildi va 2016-yilga nisbatan 33,6 % ga, 2017-yilga nisbatan 22,7% ga oshdi. Ipoteka kreditlari 2018-yil 2016-yilga nisbatan 106,4% ga, 2017-yilga nisbatan 46% ga oshdi.

Ipoteka, lizing, agrokredit va iste'mol kreditlari bank uchun katta daromadli hisoblanmaydi, shuning uchun miqdor jihatidan mikrokreditlardan pastda yuradi.

Boshqa kreditlarga avtokredit, ta'lim kredit va boshqalar kiradi. Ushbu kreditlar ham qisqa muddatlarga beriladi. Umuman bank uchun qisqa muddatli kreditlar eng serdaromad hisoblanadi va yildan yilga ular hajmini oshirishga harakat qilinadi.

Chet el kapitali ishtirokidagi “Hamkorbank” aksiyadorlik tijorat banki xorijiy kredit liniyalarini jalb qilish va o'zlashtirish bo'yicha respublikamizdagi yetakchi tijorat banklaridan biridir. Bugungi kunga kelib, bank 20 dan ortiq xalqaro moliya institutlari bilan samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Jumladan, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Yevropa taraqqiyot va tiklanish banki, Gollandiya rivojlantirish banki va dunyoning boshqa yetakchi fondlari bilan hamkorlik o'rnatilgan.

Mazkur rejalardan kelib chiqqan holda 2018-yilning dekabr oyida Yevropaning nufuzli investitsion fondlaridan jami 45.0 mln AQSh dollaridan ziyod kelishuvlar tuzilib, bugungi kunda mazkur liniya mablag'lari bank tomonidan mijozlarga qulay shartlarda kredit liniya ko'rinishida taklif etib kelmoqda. Yuqorida berilgan kreditlarni moliyalash manbalarini tahlilini quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin.(2.2.3-jadval)

2.2.3-jadval

Kreditlash uchun moliyalash manbalari tahlili (mln. so'mda)

Moliyalash manbalari	Yillar			O'zgarishi (2016-2018-y)	
	2016	2017	2018	+ ; -	%
	O'z mablag'i hisobidan	72 727	81 480	106 427	33 700
Byudjetdan tashqari jamg'armalar hisobidan	493	680	940	447	190,7
Xorijiy kredit liniyalari hisobidan	25 165	30 695	51 105	25 940	203,1
Jami:	98 385	112 855	158 472	60 087	161,1

Manba: «Hamkorbank» ATBning yillik hisobotlari asosida hisoblandi asosida hisoblandi


Bankning asosiy faoliyati bo'lmish kreditlar ajratish albatta katta ustavni talab qiladi. Kreditlar yuqorida ko'rsatilgan manbalar hisobdan taqsimlanadi. “Hamkorbank” ATBda ham yil sayin kredit berish ko'lami o'smoqda. 2018-yilda berilgan kredit miqdori 158 472 mln so'mni tashkil qilib, bu ko'rsatkich 2017-yilga nisbatan 40,4% ga, 2016-yilga nisbatan esa 61,1% ga o'sgan. Bank uchun kreditlarni ajratish albatta o'z hisobidan bo'lishi foydani maksimallashtiradi. Shu

sabab yuqoridagi jadvalda mablag'lar asosiy qismi o'z hisobidan shakllangan. 2018-yil ushbu ko'rsatkich 106 427 mln so'mni tashkil qilib, 2016-yilga nisbatan 46,3% ga, 2017-yilga nisbatan 30% ga ortgan.

Byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga Markaziy bank ajratgan va imtiyozli shartda berilish kerak bo'lgan kreditlar moliyalanadi. 2018-yil bu summa 940 mln so'mni tashkil qilib, 2016-yilga nisbatan 90.7 % ga, 2017-yilga nisbatan 38% ga ortgan. Bu shuni ko'rsatadiki, mamlakat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash oshirilmoqda. Byudjetdan tashqari manbalardan moliyalashtirilgan kreditlar uzoq muddatga past foizlarda, asosan kam ta'minlangan qatlam vakillariga ajratiladi.

Xorijiy kredit liniyalari har bir tijorat banki uchun eng serdaromad manba hisoblanadi. Sababi xorijiy kredit liniyalari chet el valyutasi, katta miqdorda va uzoq muddatga kelishiladi. Ushbu manba shu bilan bir qatorda bank ishonchliligi va barqarorlik ko'rsatkichlari asosi ham demakdir. "Hamkorbank" chet el banklari orasida ham reytingi baland, ishonchli hamkor hisoblanadi. Chet el kredit liniyalari hisobdan moliyalash 2018-yil 51 105 mln so'mga yetib, 2016-yildan 103,1% ga, 2017-yilga nisbatan 66% ga ortiqroqdir.

Moliyalash manbalarining jami ajratilgan kredit miqdoridagi ulushini o'zgarishini quyidagi diagramma orqali ko'ramiz. (2.2.1-diagramma)



Manba: «Hamkorbank» ATBning yillik hisobotlari asosida hisoblandi

2.2.1-diagramma. Moliyalash manbalarining jami ajratilgan kredit miqdoridagi ulushi (%)

Bank kredit turlari foydalanish muddatiga qarab 2 turga bo'linadi:

- Qisqa muddatli kredit - 12 oygacha berilganda
- Uzoq muddatli kredit - 12 oydan yuqori muddatga berilganda

ChEKI "Hamkorbank" ATBda ajratilgan kreditlarning muddati bo'yicha tahlili quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin. (2.2.4-jadval)

2.2.4-jadval

Bank tomonidan ajratilgan kreditlarni muddatlar bo'yicha tahlili

(mln. so'mda)

Kredit muddatlari	Yillar			O'zgarishi	
	2016	2017	2018	(2016-2018 y)	
				+ ; -	%
Qisqa muddatli	16 170	18 895	21 745	5 575	134,5
Uzoq muddatli	82 215	93 960	136 727	54 512	166,3
Jami:	98 385	112 855	158 472	60 097	161,1

Manba: «Hamkorbank» ATBning yillik hisobotlari asosida hisoblandi

Yuqoridagi jadvallarda ko'rganimizdek, bank ajratayotgan katta hajmli kreditlar mikro kreditlar va qishloq joylarga berilayotgan kreditlardir. Ushbu kredit turlari asosan 1 yildan 3 yilgacha muddatga berilib, uzoq muddatli kreditlarni tashkil qiladi.

Shu boisdan uzoq muddatli kreditlar umumiy kreditlar katta hajmini tashkil qiladi. 2.2.4-jadvalda ko'rishimiz mumkinki, 2018-yil qisqa muddatli jami ajratilgan kreditlar hajmi 21 745 mln so'mni tashkil qilib, 2016-yilga nisbatan 34%ga, 2017-yilga nisbatan 15% ga ortgan. Uzoq muddatli ajratilgan kreditlar hajmi 2018-yil 136 727 mln so'mni tashkil qilib, 2016-yilga nisbatan 66,3% ga, 2017-yilga nisbatan 45% miqdorga ortgan.

Bank tomonidan ajratilgan barcha kreditlarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlilini ko'rib chiqamiz. Buning uchun quyidagi jadval ma'lumotlariga yuzlanamiz. (2.2.5-jadval)

2.2.5-jadval

**Bankning barcha moliyalash manbalari hisobidan iqtisodiyot faoliyat turlari
bo'yicha ajratilgan kreditlar (mln. so'mda)**

T/r	Faoliyat turlari	Yillar			O'zgarish (2016-2018 y)	
		2016	2017	2018	+ ; -	%
1	Sanoat	78 618	86 715	121 123	42 505	154
2	Qishloq xo'jaligi	1 700	2 420	3 172	1 472	186,6
3	Savdo va umumiy ovqatlanish	14 270	17 870	25 950	11 680	181,8
4	Qurilish	1 980	3 100	4 355	2 375	219,9
5	Maishiy xizmat	927	1 420	1 969	1 042	212,4
6	Transport va aloqa	890	1 330	1 903	1 013	213,8

Manba: «Hamkorbank» ATBning yillik hisobotlari asosida hisoblandi

Mamlakatda sanoatning qay darajada rivojlanganligi mamlakat rivojini ham belgilaydi. So'nggi yillarda yurtimizda ko'plab sanoat korxonalari tashkil etildi va ular tijorat banklari va hukumat tomonidan moliyaviy qo'llanmoqda. "Hamkorbank" ATBda barcha iqtisodiy faoliyat turlari ichida sanoat sohasiga katta miqdorda kreditlar ajratilgan. 2018-yil sanoat sohasiga ajratilgan kreditlar miqdori 121 123 mln. so'mni tashkil qildi va 2016-yilga nisbatan 54%ga, 2017-yilga nisbatan 54% ga ortdi. Buning asosiy sababi viloyatimizda yengil sanoat, trikotaj sohasining jadal sur'atlar bilan rivojlanayotganligidir. Ajratilgan kreditlarning asosiy qismi aynan shu sohaga yo'naltirilgan.

Qishloq xo'jaligiga ajratilgan kreditlar miqdori 2018-yilda 3 172 mln so'mni tashkil qilib, 2016-yil mos davriga nisbatan 86.6% ga, 2017-yilga nisbatan 31% ga ortdi. Savdo va umumiy ovqatlanish sohasiga 2018-yil 29 950 mln so'm kredit ajratilib, bu ko'rsatkich 2016-yilga nisbatan 81.8%ga, 2017-yilga nisbatan 45% ga ortgan. Qurilish sohasiga 2018-yil 4 355 mln so'm kredit ajratilib, bu ko'rsatkich 2016-yilga nisbatan 119,9%ga, 2017-yilga nisbatan 40% ga ortgan. Maishiy

xizmat ko'rsatkichlari 2018-yilda 1 969 mln so'mni tashkil qilib, 2016-yilga nisbatan 112,4% ga, 2017-yilga nisbatan 38%ga ortgan. Transport va aloqa bo'yicha ko'rsatkichlar 2018-yil 1 903 mln. so'mni tashkil qilib, 2016-yilga nisbatan 113,8%ga, 2017-yilga nisbatan esa 43% ga ortgan.

Eng ko'p o'sgan 3 soha qurilish, maishiy xizmat, transport va aloqa bo'lib, buning asosiy sababi viloyatimizda ko'p qavatli uylar qurilishi jadal sur'atlar bilan ko'paygani, maishiy xizmat sohasida muddatli to'lov asosida texnikalar berilishi ortganligini omil qilib olishimiz mumkin. Transport va aloqa tizimi ko'plab yangi yo'nalishlar, uyushmalar omili yotibdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkolikni rivijlantirish asosiy ustunligi va strategik ahamiyatlaridan biri yangi ish o'rinlari yaratish, aholi bandligidir. Kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kreditlash faoliyat ko'lamini kengaytirish va bu orqali yangi ish o'rinlari tashkil qilishga asos bo'lib xizmat qiladi. Quyidagi jadvalda "Hamkorbank" ATB tomonidan ajratilgan kreditlar asosida yangi yaratilgan ish o'rinlarini tahlilini ko'rib chiqamiz. (2.2.6-jadval)

2.2.6-jadval

Bank tomonidan berilgan kreditlar asosida yaratilgan ish o'rinlari tahlili.

T/r	Ajratilgan kreditlar	Yillar			O'zgarishi (2016-2018 y)	
		2016	2017	2018	+ ; -	%
1	Qishloq joylarga ajratilgan kreditlar asosida	58	67	82	24	41
2	Mikrokreditlar asosida	89	112	145	56	63
3	Lizing asosida	3	5	8	5	167
4	Agrokredit asosida	32	54	78	46	144
5	Ajratilgan imtiyozli kreditlar asosida	48	72	90	42	87,5
6	Boshqa ajratilgan kreditlar asosida	6	7	9	3	50
	Jami yaratilgan yangi ish o'rni	236	317	412	176	174

Manba: «Hamkorbank» ATBning yillik hisobotlari asosida hisoblandi

“Hamkorbank” ATB tomonidan qishloq joylarga ajratilgan kreditlar asosida 2018-yilda 82 ta ish o‘rinlari tashkil qilinib, 2016-yilga nisbatan 41% ga, 2017-yilga nisbatan 22% ga ko‘p ish o‘rinlari yaratildi. Son jihatdan eng yuqori natija berilgan mikrokreditlarda bo‘lib, 2018-yil ushbu kreditlar asosida 145 ta ish o‘rni yaratilib, bu ko‘rsatkich 2016-yilga nisbatan 63%ga, 2017-yilga nisbatan 29% ga ortgan. Agrokreditlar va ajratilgan imtiyozli kreditlar asosida ham qolgan turlarga nisbatan ko‘p ish o‘rinlari tashkil qilindi.

ChEKI “Hamkorbank” ATB mamlakatimizda kichik biznes subyektlarini kredit bilan ta‘minlash, jumladan, mikrokreditlar ajratishda 3-o‘rinda turadi. Ushbu bank kichik biznesni rivojlantirish, moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida hozirgi kunda o‘z hisobidan, balki chet el kredit liniyalari hisobidan qulay shartlarda kreditlar taklif etib kelmoqda.

2018-yilda “Hamkorbank” ATB tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan xorijiy kredit liniyalari 2017-yilga nisbatan 4.2 barobarga oshdi. 2019-yilda bank mijozlarining talablarini maksimal darajada qondirish maqsadida yana xalqaro moliya institutlaridan mablag‘lar jalb qilish rejalashtirilgan.³³

Kichik tadbirkorlik subyektlariga, jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar, kichik korxonalar, dehqon va fermer xo‘jaliklari hamda oilaviy korxonalarga kreditlar o‘zini-o‘zi qoplashini hisobga olgan holda quyidagi muddatlarga beriladi:

- qarz oluvchi o‘z faoliyatini boshlashi uchun aylanma mablag‘larni shakllantirish va investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslanishini;
- ishlab chiqishga — 12 oy muddatgacha;
- aylanma mablag‘larni to‘ldirishga — 18 oy muddatgacha;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishni tashkil etish uchun aylanma mablag‘larni to‘ldirishga — 24 oy muddatgacha
- asosiy vositalar sotib olishga hamda qurilish va rekonstruksiya xarajatlariga, shu jumladan investitsion kreditlarning muddati loyihani

³³ Hamkorbank ATB ma‘lumotlar bazasi

o'zini-o'zi qoplashidan kelib chiqib ko'pi bilan 60 oy muddatgacha;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-yanvardagi "Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikro kreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2746-sonli qarori doirasida ajratiladigan mikro kreditlar - 36 oy muddatgacha belgilanishi mumkin va ushbu qaror doirasida ajratilgan mikro kreditlar uchun quyidagi foiz belgilanadi:

- 1 dona ish o'rni yaratilganda – 9 %
- 2 dona ish o'rni yaratilganda – 8%
- 3 va 4 dona ish o'rni yaratilganda – 7 %
- 5 dona va undan ortiq ish o'rni yaratilganda – 6 %

“Hamkorbank” ATBda kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar tahlilini 3 yilligini ko'rib chiqamiz. (2.2.7-jadval)

2.2.7-jadval

“Hamkorbank” ATBda kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar tahlili (mln. so'mda)

Ajratilgan kreditlar	Yillar			O'zgarishi (2016-2018 y)	
	2016	2017	2018	+ ; -	%
Jami ajratilgan kreditlar	98 385	112 855	158 472	60 087	61%
Qishloq joylarga ajratilgan kreditlar	54 033	65 269	81 979	27 946	51%
Kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar	50 000	61 565	135 936	85 936	171%
Ayol tadbirkorlarga ajratilgan kreditlar	4 352	6 021	16 312	11 960	374,8%

Manba: «Hamkorbank» ATBning yillik hisobotlari asosida hisoblandi


Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, boshqa tijorat banklari qatori “Hamkorbank” ATBda ham yil sayin kredit berish ko'lamini o'smoqda. 2018-yilda berilgan kredit miqdori 158 472 mln so'mni tashkil qilib, bu ko'rsatkich 2017-yilga nisbatan 40,4% ga, 2016-yilga nisbatan esa 61,1% ga o'sgan. So'nggi yillarda qishloq xo'jaligining mexanizatsiyalash va klaster tizimiga o'tish munosabati bilan fermer va dehqon xo'jaliklariga berilayotgan kredit ko'lamini

osHIRILMOQDA. 2018-yilda berilgan kredit miqdori 81 979 mln. so'mni tashkil qilib, bu ko'rsatkich 2016-yilga nisbatan esa 51% ga, 2017-yilga nisbatan 25% ga o'sgan. O'tgan 2018-yil qishloq xo'jaligi sohasiga sezilarli darajada ko'p kredit mablag'lari ajratilgan.

Kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar miqdori 2018-yilda 135 936 mln so'mni tashkil qildi. Bu ko'rsatkich 2016-yilga nisbatan 271% ga, 2017-yilga nisbatan 220% ga ko'pdir. Kichik biznes subyektlari soni va ularni YaIMdagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2018-yilda 48.9 mingdan ortiq kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi. Bu 2017-yil shu davrga nisbatan 28.2% ga ko'p demakdir.

Mamlakatimiz xususiy sektorida ayol tadbirkorlar o'rni yildan yil ortib bormoqda. "Hamkorbank" ATB tomonidan ayol tadbirkorlarga ajratilgan kreditlar miqdori 2018-yilda 16 312 mln. so'mni tashkil qilib, bu ko'rsatkich 2016-yilga nisbatan 274,8% ga, 2017-yil mos davriga nisbatan 271% ga ortgan.

Bank tomonidan jami ajratilgan kreditlarda kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar ulushi ortib bormoqda. Buni quyidagi diagramma orqali ko'rish mumkin. (2.2.3-diagramma)



Manba: «Hamkorbank» ATBning yillik hisobotlari asosida hisoblandi

2.2.2-diagramma. Jami ajratilgan kreditlarda kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar ulushi (%)

Bank kichik biznes subyektlariga berilayotgan kredit hajmini oshirishiga bir qator omillar mavjudki, bular bank faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va moliyaviy daromad manbayi hisoblanadi.

Birinchidan, kichik biznes subyektlariga kredit berish orqali nafaqat foizli daromadlar, balki ularga xizmat ko'rsatish orqali daromad olish imkoni.

Ikkinchidan, kichik biznes subyektlari bank uchun doimiy mijoz sanaladi. Ya'ni, ular keyinchalik faoliyatini kengaytirish maqsadida yana moliyaviy ta'minotga muhtojlik sezadi va bankdan doimiy kredit olish ehtiyoji tug'iladi.

Uchinchidan, kichik biznes subyektlariga beriladigan kreditlar miqdori uncha katta bo'lmagan summada va qaytarilish muddati qisqa davrga beriladi. Bunda bank mablag'lari aylanishi faol va daromadli bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi PQ-3856 sonli "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida banklar tomonidan respublika tumanlari va shaharlarida yangi ish o'rinlari tashkil etishni nazarda tutuvchi kichik va miniloyihalarni amalga oshirish uchun mikro kreditlar ajratilishi, mikro kreditlar eng kam ish haqining 500 baravarigacha bo'lgan miqdorda 3 yillik muddatga, 6 oylik imtiyozli davr bilan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizi miqdoridagi foiz stavkasi, shu jumladan, tijorat bankining ajratiladigan kredit stavkasining 50 foizi miqdoridagi marja bilan taqdim etilishi belgilangan.


Bankda ajratilgan mikro kreditlar miqdori va undagi kichik biznes subyektlari ulushini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin. (2.2.8-jadval)

**Bank tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilgan mikrokreditlar
miqdori (mln. so'mda)**

Kredit turi	Yillar			O'zgarishi (2016-2018)	
	2016	2017	2018	+ ; -	%
Jami ajratilgan mikrokreditlar	9 208	12 225	16 893	7 685	183,5%
Kichik biznes subyektlariga berilgan mikrokreditlar	6 055	8 573	12 338	6 283	203,8%

Manba: «Hamkorbank» ATBning yillik hisobotlari asosida hisoblandi

“Hamkorbank” ATBda 2018-yil ajratilgan mikrokreditlar miqdori 16 896 mln so'mni tashkil qilib, bu ko'rsatkich 2016-yilga nisbatan 83,5% ga, 2017-yilga nisbatan 38 %ga ortgan. Bundan kichik biznes subyektlariga ajratilgan mikrokreditlar 2018-yilda 2016-yilga nisbatan 103,8 %ga, 2017-yilga nisbatan esa 44 %ga o'sgan. Quyidagi diagramma orqali jami ajratilgan mikrokreditlarda kichik biznes subyektlariga ajratilgan mikrokreditlarni ulushini ko'rishimiz mumkin.(2.2.3-diagramma)



Manba: «Hamkorbank» ATBning yillik hisobotlari asosida hisoblandi

2.2.3-diagramma. Mikrokreditlarda kichik biznes subyektlarining ulushi (%)

Mikrokreditlashning o'sishiga hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan maqsadli dasturlari katta hissa qo'shmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2018-yil 22-noyabr kuni bank tizimini isloh etish va banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, hududlar va tadbirkorlikni rivojlantirishda tijorat banklarining rolini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi, unda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash maqsadida mikrokreditlar hajmini keskin oshirish, ularni ajratish tartibini soddalashtirish zarurligiga alohida urg'u berildi³⁴.

Bugungi kunda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, sohaga ilg'or texnologiyalarni keng joriy etish, ishbilarmonlarga yanada erkinlik berish maqsadida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Respublika miqyosida O'zbekiston ishbilarmon ayollar Assotsiyasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu assotsiatsiya 1991-yilda tashkil topgan bo'lib, ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini kengaytirish va himoyalash, ularning tadbirkorlik va jamoat tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, moliyaviy, ta'lim axborot resurslaridan foydalanishini ta'minlashga ko'maklashadi. Shuningdek, ayollarning bozor munosabatlarini shakllantirish jarayonida ishtirok etishi uchun qulay sharoitlar yaratish, o'zaro ishonch va ishbilarmonlik hamkorligi iqlimini mustahkamlash, innovatsiya ta'lim dasturlarini joriy etish, qayta o'qitish va malakasini oshirish yo'li bilan ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarini yaxshilashning institutsional yuridik mexanizmlarini barpo etish va tadbirkor ayollarni huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash ushbu assotsiatsiyaning asosiy vazifalaridandir. Tadbirkor ayol assotsiatsiyasi tomonidan "2018-2021-yillarda xotin-qizlar uchun biznes ta'lim tizimini mukammallashtirish" dasturi ishlab chiqildi.

Dastur quyidagi o'quv modullarini qamrab oladi:

1. Biznesni rejalashtirish va moliyaviy savodxonlik
2. Biznesni samarali boshqarish
3. Raqobatbardoshlik va mahsulotni bozorga munosib taqdim etish

³⁴ O'zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 23.11.2018 dagi Bank tizimini isloh etish va banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, hududlar va tadbirkorlikni rivojlantirishda tijorat banklarining rolini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor

4. Tadbirkorlik faoliyatini yuritish: ayol, oila, biznes, urf-odat va zamonaviylik

Loyiha doirasida 78 000 nafar xotin-qizlarga biznes asoslari bo'yicha ko'nikma va amaliy yordam berildi, 50 000 ta yangi ish o'rinlari ochilishi rejalashtirildi. Shu nuqtai nazardan dastur mamlakatimizdagi ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini tashkil etishda juda muhim.

Mamlakatimizda ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash borasidagi chora-tadbirlar xotin-qizlarning iqtisodiy, ijtimoiy faolligini oshirishga omil bo'lmoqda. Natijada ayollar tadbirkorlik subyektlari soni ko'payib, ular aholi bandligi va turmush farovonligini ta'minlashga munosib hissa qo'shmoqda. "Hamkorbank" ATBda tadbirkor ayollarga barcha moliyalash manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar miqdori tahlilini quyidagi jadval orqali ko'rib chiqamiz. (2.2.9-jadval)

2.2.9-jadval

Tadbirkor ayollarga ajratilgan kreditlar tahlili (mln. so'mda)

Ajratilgan kreditlar	Yillar			O'zgarishi (2016-2018 y)	
	2016	2017	2018	+ ; -	%
Kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar	50 000	61 565	135 936	85 936	271,8
Tadbirkor ayollarga ajratilgan kreditlar	4 352	6 021	16 312	11 960	374,8
Kichik biznes tadbirkorlikka ajratilgan kreditlarda tadbirkor ayollarning ulushi	8,7 %	9,7 %	12 %	3,3	137,9

Manba: «Hamkorbank» ATBning yillik hisobotlari asosida hisoblandi

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatimiz xususiy sektorida ayol tadbirkorlar o'zni yildan yil ortib bormoqda. "Hamkorbank" ATB tomonidan ayol tadbirkorlarga ajratilgan kreditlar miqdori 2018-yilda 16 312 mln. so'mni

tashkil qilib, bu ko'rsatkich 2016-yilga nisbatan 274,8% ga, 2017-yil mos davriga nisbatan 171% ga ortgan.

Bugungi kunda kichik biznes subyektlarining 120 mingdan ziyodini, xususan, fermer xo'jaliklarining 4 ming 551 nafarini xotin-qizlar boshqarmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, ayollarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, biznes g'oyalarini qo'llab-quvvatlash hamda imtiyozli kreditlar bilan ta'minlashga ko'maklashish, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish ayollarning imkoniyatlarini yanada yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

2.3. ChEKI "Hamkorbank" ATBda kichik biznes subyektlariga ko'rsatilayotgan xizmat turlari tahlili


Iqtisodiyotimizda bank tizimi ishonchliligi va barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda tashqi inqiroz holatlarining salbiy ta'siriga uchramaslikning oldini olish muhim ahamiyatga egadir. Shunga qaramasdan, hozirgi kunda banklarda bozor talablariga mos keluvchi xizmat turlarini tatbiq qilish, mijozlarning talab va takliflarini hisobga olish, ularga xizmat ko'rsatishning yangi usullarini joriy etish, yangi kredit vositalarini qo'llash, turli kredit institutlarini tashkil etish bilan bog'liq islohotlarni yanada jadallashtirish zarurligini yuzaga keltirmoqda.³⁵

O'zbekiston iqtisodiyotini yuqori va barqaror sur'atlarda o'sishini va raqobatbardoshligini ta'minlash mamlakat bank tizimining va uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan tijorat banklari faoliyatining barqarorligini ta'minlash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Barcha tijorat banklari qatorida ChEKI "Hamkorbank" ATBda ham kichik biznes subyektlari uchun qulay xizmat turlari ko'rsatib kelinmoqda. Bankda yuridik va jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan xizmat turlari 50 dan ortiq bo'lib, quyida "Hamkorbank" ATB tomonidan yuridik shaxslarga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga ko'rsatiladigan xizmat turlarini ko'rishimiz mumkin³⁶.(2.3.1-chizma)

³⁵ "Bank ishi" darslik-Toshkent 2017. 3-4-bet


³⁶ "Hamkorbank" ATB Boshqaruvining 2018 yil 03 dekabr kungi 850 - sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan



Manba "Hamkorbank" ATB ma'lumotlari

2.3.1-chizma. "Hamkorbank" ATB tomonidan yuridik shaxslarga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga ko'rsatiladigan xizmat turlari

Hozirgi davrda iqtisodiyotda bo'ladigan pul aylanishining 80-90 foizini naqdsiz pul aylanishi tashkil etadi. Naqdsiz pul aylanishi naqd pulsiz hisob-kitob shakllari asosida olib boriladi. Buning uchun korxonalar va tashkilotlar o'zaro hisob-kitoblarini bevosita bankdagi hisobvaraqlar orqali amalga oshirishlari uchun o'zlari xohlagan bankida hisob raqam ochtiradi. "Hamkorbank" ATBda milliy valyutada va chet el valyutasida ochilgan hisob raqamlarni 3 yillik tahlilini quyidagi diagrammalar orqali ko'rishimiz mumkin. (2.3.1-diagramma)




Manba: «Hamkorbank» ATBning yillik hisobotlari asosida hisoblandi

2.3.1-diagramma. Milliy valyutada ochilgan va yopilgan hisob raqamlar

Milliy valyutada 2018-yilda ochilgan hisob raqamlar 2016-yilga nisbatan 215 %ga, 2017-yilga nisbatan esa 154 %ga ortganini ko'rishimiz mumkin. Yopilgan hisobraqamlar 2016-yilda ochilgan hisob raqamlarning 10 %ini, 2017-yilda 13 %ini, 2018-yilda esa 12,8%ini tashkil qilgan.

Bank tomonidan xorijiy valyutada mijoz hisobvaraqlari bilan bog'liq amaliyotlar ham amalga oshiriladi. Mijoz hisobvaraqlarini yuritish, mijoz hisob raqamlaridan mablag'larni ko'chirish, mijoz iltimosiga ko'ra chet el bankiga so'rovnomalar jo'natish hamda surishtirish ishlari kabi o'nlab xizmatlar ko'rsatiladi. Bankda xorijiy valyutada ochilgan hisob raqamlar tahlilini quyidagi diagrammada ko'rishimiz mumkin. (2.3.2-diagramma)




Manba: «Hamkorbank» ATBning yillik hisobotlari asosida hisoblandi

2.3.2-diagramma. Bankda xorijiy valyutada ochilgan hisobraqamlar

Bankda xorijiy valyutada ochilgan hisob raqamlar miqdorining 3 yillik tahliliga nazar soladigan bo'lsak, 2018-yili 2016-yilga nisbatan 4,9 barobar, 2017-yilga nisbatan esa 2,6 barobar o'sgan. Ushbu yevro, rubl, AQSh dollar valyutalarida ochilgan hisob raqamlar miqdorida AQSh dollari ustunlik qilar ekan. 2016-yil davomida jami chet el valyutasida ochilgan hisob raqamlar miqdorida yevro ulushi 16,7 %ga, rubl ulushi 23,3 %ga, AQSh dollarining ulushi 60%ga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkichlar 2017-yilda esa rubl 16%ni, yevro 19,7 %ni, AQSh dollari 64,2%ni tashkil qilgan. 2018-yilga kelib, AQSh dollarining ulushi keskin oshganini ko'rishimiz mumkin. Uning umumiy miqdordagi ulushi 75,7 % ga, rublniki 10,8%ga, yevroniki esa 13,5%ga to'g'ri kelmoqda. Chet el valyutasida ochilgan hisob raqamlar miqdori 2018-yilga kelib sezilarli darajada ortishi va unda AQSh dollarning ulushi oshib ketishiga Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 5-sentabrdagi PF-5177 sonli «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birlamchi chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni asos bo'ldi.

O'zbekistonda plastik kartochka naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimida ommabop dastakka aylandi. U nafaqat naqd pul mablag'larining bankdan tashqari

muomalasini qisqartirishga imkon beradi, balki aholi uchun xarid qilingan tovarlar va xizmatlar uchun hisob-kitoblarni amalga oshirayotganda qo‘shimcha qulayliklar ham yaratadi. Bugungi kunda respublika banklari tomonidan bank kartalari yordamida naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini kengaytirish maqsadida 19,3 mln.ta bank kartalari muomalaga chiqarilgan bo‘lib, ushbu kartalar orqali 2018-yilning o‘n oyi mobaynida 36,9 trln. so‘mga yaqin tranzaksiyalar o‘tkazildi. ChEKI “Hamkorbank” ATBda 3 yil mobaynida chiqarilgan bank plastik kartalari miqdorini quyidagi diagrammada ko‘rishimiz mumkin. (2.3.3-diagramma)




Manba: «Hamkorbank» ATBning yillik hisobotlari asosida hisoblandi

2.3.3-diagramma. Bank tomonidan muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari tahlili

Bank 2018-yilda jami 1669 ta bank plastik kartasi muomalaga chiqargan bo‘lib, buni 772 tasi milliy valyutadagi plastik kartalar, 897 tasi xalqaro plastik kartalardir. Milliy valyutadagi plastik kartalar 2018-yili 2016-yilga nisbatan 179% ga, 2017-yilga nisbatan esa 139,6% ga o‘sgan. Xalqaro plastik kartalar 2018-yilda yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan, 2016-yilga nisbatan 23 marta, 2017-yildan esa 5,2 marta ortgan.

Hozirgi kunda tadbirkorlik subyektlari uchun eng qulay bo‘lgan va ommabop bank xizmatlaridan biri masofaviy xizmat ko‘rsatish xizmat turlari, SMS banking, internet banking va mobile bankinglardir. Internet-bankingdan foydalanish uchun

sizga internetga ulangan kompyuter lozim bo‘ladi. Mobile-bankingdan foydalanish uchun sizga Android operatsion tizimiga asoslangan va internetga ulangan mobil telefon kerak bo‘ladi. Ushbu xizmat turi bankda 2008-yildan joriy qilingan. Quyidagi diagramma orqali masofaviy xizmat bo‘yicha tahlilni ko‘rishimiz mumkin. (2.3.4-diagramma)



Manba: «Hamkorbank» ATBning yillik hisobotlari asosida hisoblandi

2.3.4-diagramma. Bank tomonidan kichik biznes subyektlariga ulangan masofaviy xizmatlar tahlili.

Bank tomonidan mobile banking xizmat turiga ulangan tadbirkorlik subyektlari soni 2018-yilda 2040 tani tashkil qilib, 2016-yilga nisbatan 1082 taga yoki 112 % ga, 2017-yilga nisbatan 30% ga ortgan. Sababi mobile banking orqali bank operatsiyalarini bajarish, o‘tkazmalar, hisobdagi mablag‘larni doimiy kuzatish imkoniyatlari yanada takomillashtirildi. Ushbu xizmat mijozlar uchun ham, bank xodimlari uchun ham qulay hisoblanadi.

Internet banking xizmat turiga ulangan kichik biznes subyektlari soni 2018-yilda 1040 tani tashkil qildi va 2016-yil mos davriga nisbatan 213% ga, 2017-yil mos davriga nisbatan 86% ga ortgan. Internet banking orqali kichik biznes subyektlari, umuman korxonalar masofaviy hisob raqam ochishlari, buxgalteriya hisobini yuritish uchun asosiy ma‘lumot bo‘lgan o‘z mablag‘

aylanmalari haqida bankka bormasdan ma'lumot olishlari mumkin. Masofaviy xizmat turlariga ulangan nafaqat yuridik shaxslar, balki jismoniy shaxslar miqdori ham kundan kun oshib bormoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, bank tizimi mijozlar uchun ishlaydi va mijozga xizmat ko'rsatish samaradorligining oshishi bankning barqarorligini ta'minlaydi.

III BOB. IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHI ISTIQBOLLARI (ChEKI “HAMKORBANK” ATB MISOLIDA)

3.1. Kichik biznes subyektlarini kreditlashdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi iqtisodiy o'sishga erishish, aholining turmush darajasini yuksaltirish, O'zbekistonning jahon iqtisodiy hamjamiyatida real ishtirok etishiga erishishdan iborat. Bozor iqtisodiyoti tizimida bunday masalalar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash orqali hal etib boriladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan rivojlantirish bo'yicha sa'y – harakatlar davlat mulkini xususiylashtirish hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 28-avgustdagi 349-sonli qarori bilan qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab - quvvatlash davlat dasturi”ning qabul qilinishi bilan boshlangan .

Davlat tomonidan moliyaviy qo'llab - quvvatlash soliq solish, kreditlash, sug'urtalash va oqilona dotatsiyalar, investitsiyalashdagi imtiyozli tartiblar shaklida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5242-son, 2018-yil 27-iyundagi “ “Yoshlar-kelajagimiz” davlat dasturi to'g'risida”gi PF-5466-son Farmonlari, 2018-yil 26-apreldagi “Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3680-son, 2018-yil 7-iyundagi “ “Har bir oila — tadbirkor” dasturini amalga oshirish to'g'risida”gi PQ-3777-son va 2018-yil 14-iyuldagi “Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3856-son qarorlari asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash xajmini

yanada oshirish, kreditlash shartlarini soddalashtirish, ularga bank xizmatlaridan foydalanish borasida qo'shimcha imtiyoz va qulayliklar yaratish bo'yicha chora-tadbirlar izchillik bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Birgina "Har bir oila – tadbirkor" dasturi uchun respublika miqyosida joriy 2019-yil uchun maqsadli jamg'armalardan qo'shimcha 5 trillion so'm mablag' yo'naltirildi. Umuman tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash uchun joriy yilda tijorat banklari orqali barcha hududlarga 6 trillion 200 milliard so'm yoki 700 million dollardan ziyod resurslar ajratildi.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda bank tizimida biznesni yuritish shart-sharoitlarini yengillashtirish va arzonlashtirish hamda tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan yuqori baholanib kelinmoqda. Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining 2018-yilning oktabr oyida e'lon qilingan tadbirkorlik faoliyatini yuritish shart-sharoitlari bo'yicha "Biznesni yuritish — 2018" hisobotida O'zbekiston tadbirkorlik uchun yanada qulay sharoitlar yaratish bo'yicha islohotchi davlatlar qatorida jahonda birinchi o'ntalikka kirdi.³⁷ Bu esa mamlakatimizda kichik biznes sohasiga berilayotgan e'tiborning isbotidir.

Kichik biznes va tadbirkorlikning taraqqiyoti respublikamiz kelajagini belgilar ekan, ularning moliyaviy ta'minoti esa tijorat banklariga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3620-sonli qaroriga asosan bank faoliyatining ilg'or xalqaro tajribasini o'rganish hamda bank xizmatlari va mahsulotlarining yangi turlarini joriy etish kerak. Ushbu qarorda ta'kidlanishicha: "...bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga, ayniqsa, hududlarda rioya etish hamda moliyaviy ochiqlikni kengaytirish, shuningdek, xizmat ko'rsatish madaniyati va bank tizimiga bo'lgan ishonchni yanada oshirishda bir qator muammo va kamchiliklar kuzatilmoqda. Xususan:

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5409 sonli farmoni 2018-yil 11-aprel

birinchidan, kreditlarni ajratish bo'yicha qarorlar qabul qilishda vakolatlarning haddan tashqari markazlashganligi bosh banklar va ularning filiallari o'rtasidagi javobgarlikning aniq chegaralanishiga to'sqinlik qilmoqda;

ikkinchidan, kredit buyurtmalarini ko'rib chiqishning murakkablashgan mexanizmlari kreditlarni tezkor olish imkoniyatini chegaralamoqda;

uchinchidan, tijorat banklari tomonidan mikroqarzlar ajratilishi imkoniyatining mavjud emasligi mikroqarzlar olish darajasini oshirish imkonini bermayapti, mikrokredit tashkilotlar va lombardlarning xizmatlari bo'yicha yuqori foiz stavkalari aksariyat holatlarda iste'molchilarning moliyaviy holati yomonlashishiga olib kelmoqda;

to'rtinchidan, chakana bank xizmatlari bozorining past darajada rivojlanganligi va mijozlar bilan hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yishning zamonaviy yondashuvlari mavjud emasligi ortiqcha byurokratiya va sansalorlik uchun zamin yaratmoqda;

beshinchidan, bank kartalari asosida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish bo'yicha davlat protsessing tashkilotining mavjud emasligi chakana to'lov tizimlarining xavfsizlik, uzluksizlik va ishonchlilik darajasiga ta'sir ko'rsatmoqda hamda aholining keng qatlamlari uchun ochiq bo'lgan innovatsion loyihalarni amalga oshirishda zamonaviy texnologik yechimlarni ilgari surishga to'sqinlik qilmoqda;

oltinchidan, kreditlarni (mikroqarzlarni) ko'rib chiqish va ajratish uchun xizmat haqi hamda boshqa to'lovlarning undirilishi qarzning real qiymati oshishiga olib kelmoqda;

yettinchidan, shartnomalarga xizmatlar tariflarini, ajratilgan kreditlar va jalb qilingan depozitlar bo'yicha foizlarni bir tomonlama o'zgartirish huquqini nazarda tutuvchi shartlarning kiritilishi, shuningdek, bir xizmatning qo'shimcha xizmatdan foydalanish sharti bilan ko'rsatilishi bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini buzmoqda;

sakkizinchidan, bank to'lov kartalaridan chet el valyutasini yechish bo'yicha cheklovlarning mavjudligi va bankomatlar sonining yetarli emasligi

valyuta ayirboshlash amaliyotlarini bajarishda talab darajasida xizmat ko'rsatish imkonini bermayapti.”³⁸

Respublikamizning bir qator tijorat banklari kichik biznes subyektlarining investitsion loyihalarini moliyalashtirish uchun xorijiy kredit liniyalarini jalb qilgan bo'lsada, lekin ayrim muammolarga duch kelmoqda. Respublikamizda kichik biznesni ChEKI “Hamkorbank” ATB Nodirabegim filiali tomonidan kreditlash amaliyotining tahlili quyidagilarni amalga oshirishni taqozo etadi:

Tadbirkorlar tomonidan taqdim etilayotgan texnik-iqtisodiy asosnoma (TIA)larning talab darajasida ishlamaganligi xorijiy kredit liniyalari o'zlashtirilishining kechikishiga asosiy sabab bo'lmoqda. Aksariyat hollarda taqdim etilgan TIALarda sotib olinadigan xom-ashyo narxlarining kamaytirilib ko'rsatilishi, sotib olinadigan texnologik uskunar hamda sotiladigan mahsulot narxlarining real narxlarga nisbatan oshirib ko'rsatilishi TIALarni qaytadan ishlab chiqilishiga olib kelinmoqda. Chet el kreditlarining o'z vaqtida o'zlashtirilmasligining yana bir sababi kichik biznes subyektlarning kredit ta'minotining yetishmasligidir.

Kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatida samarali natijaga erishish uchun investitsion mablag'larni yuqori samaradorlikni taminlaydigan mini texnologiyalarni barpo etishga jalb qilish lozim. Investitsiya faoliyatida lizing kreditining bank kreditidan afzalligini hisobga olgan holda texnologik ta'minotning lizing munosabatlariga asoslanishi maqsadga muvofiq. Lizing munosabatlari endi oyoqqa turayotgan dehqon, fermer xo'jaliklarining rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Bugungi kunda kichik biznes subyektlarining uzoq muddatli kreditlar olish uchun ta'minotning biror-bir turini topishlarida muammolar mavjuddir. Aynan olinayotgan kredit uchun ta'minotning yo'qligi yoki yetarli emasligi 60-70% moliyalash uchun qabul qilingan loyihalarni moliyalashtirish uchun uzoq vaqtni talab qilmoqda. Ayniqsa, qishloq joylarda ko'chmas mulk birjasining rivojlanmaganligi, kafolat beruvchi moliyaviy holati mustahkam korxonalar

³⁸ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.03.2018-y., 07/18/3620/0933-son

sonining cheklanganligi ushbu muammoning yechimini yanada murakkablashtirmoqda.

Banklarning kichik biznes subyektlari investitsion loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan faoliyatini soliqlar orqali rag'batlantirish mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

3.2. Kichik biznes subyektlariga ko'rsatilayotgan bank xizmatlarini takomillashtirish yo'llari

Iqtisodiyotda O'zbekiston bank tizimi ishonchligi va barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda tashqi inqiroz holatlarining salbiy ta'siriga uchramaslikning oldini olish muhim ahamiyatga egadir. Shunga qaramasdan, hozirgi kunda banklarda bozor talablariga mos keluvchi xizmat turlarini tatbiq qilish, mijozlarning talab va takliflarini hisobga olish, ularga xizmat ko'rsatishning yangi usullarini joriy etish, yangi kredit vositalarini qo'llash, turli kredit institutlarini tashkil etish bilan bog'liq islohotlarni yanada jadallashtirish zarurligini yuzaga keltirmoqda.

G'arbning rivojlangan mamlakatlaridagi bank xizmatlari bilan O'zbekiston bank xizmatlarini taqqoslaydigan bo'lsak, yangiliklar kiritish nuqtai nazaridan O'zbekiston banklarini rivojlanishi uchun chet el mamlakatlarini tajribasidan foydalanish mumkin. Elektron kommunikatsiyalarni rivojlantirishga asoslangan, mijozlarga yo'naltirilgan texnologiyalar orqali biznes va tadbirkorlik subyektlarining banklar bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlarini takomillashtirish mumkin. Xorij mamlakatlarining bank xizmatlarining quyidagi turlarini respublikamiz banklarida joriy etishimiz mumkin:

Cash in funksiyali bankomatlar. Ularning yordamida bank mijozlari o'zlari uchun qulay bo'lgan istalgan paytda joriy va kartochka hisob raqamlariga mablag' kiritish imkoniyatiga ega bo'ladi. Pullarni qabul qilish konvertida emas, kupyuralar bilan amalga oshiriladi, bu esa pul miqdorini darhol hisoblab chiqish va pullarning haqiqiylikini tekshirish imkonini beradi. Kartochka hisob raqamiga kiritilgan pullar mijozning kartasiga bir zumda o'tkazib beriladi. Shuningdek, cash in funksiyali bankomatlar yordamida kreditni qaytarish uchun mablag'lar o'tkazish qulay bo'ladi.

IP telefoniya Ushbu yechim o'zining WAN (wide area network) global tarmog'iga ega bo'lgan banklar uchun mo'ljallangan. IP-telefoniya bu tarmoqdan bo'linmalarda telefon aloqasini qo'llab-quvvatlash uchun arzon kanal sifatida foydalaniladi. Bunda bank bugungi kunda keraksiz bo'lib qolgan, eskirgan ATSlardan voz kechadi va qimmat xalqaro aloqa to'lovlaridan qutiladi. Bu holatda

bank har bir bo'linmada ish samaradorligi va mehnat mahsuldorligini oshiradigan qo'shimcha. zamonaviy xizmatlarga ega bo'ladi.

Customer care (buyurtmachilarga g'amxo'rlik). O'zining strategik maqsadlariga erishish uchun ko'pchilik banklar mahsulot va xizmatlarini buyurtmachilarning ehtiyojlariga aniqroq yo'naltirishi lozim. Bu yechim banklarga bo'linmadagi butun ishchi muhitni mijoz tomon yo'naltirishga yordam beradi. Bunda bo'linma mijozning har bir so'rovi bankning o'zi ko'rsatgan mezonlar bo'yicha eng puxta bilimli (vakolatli) xodimga yuboriladigan bank call-markazining faol qismiga aylanadi. Agar so'rov bank va buyurtmachi haqida barcha zarur axborotlarga ega, muammoni tez va samarali hal qila oladigan xodimga birdan borib tushadigan bo'lsa, bank o'zining strategik maqsadlariga ancha tezroq va osonroq erishishi mumkin.

IP ATM & KIOSK (IP-bankomat va kiosk). Bankomatlar va axborot kiosklarining umumiy bank IP-tarmog'iga to'liq integratsiyalashuvi, ularni bank biznesining strategik vazifalarini hal qilishda juda foydali vositaga aylantiradi. Bankomatlar mijozlar o'rtasida keng ommalashgan, biroq boshqa bank kanallaridan ma'lum darajada alohida ajratilgan holatda ishlaydi. IP-tarmoqqa ulangan bankomat naqd pul yoki hisob raqamidagi qoldiqlar haqida ma'lumotnoma berish bilangina cheklanib qolmaydi, bunga qaraganda ancha ko'proq xizmatlar taqdim etishi mumkin. Ovoz, videotasvir va ma'lumotlar bilan ishlay oladigan bankomat mijozlar uchun kengroq va sifatliroq xizmatlar to'plamini yetkazib berish kanaliga aylanadi. Axborot kiosklari nisbatan yangi va odatdan tashqari bank vositasi bo'lib turibdi, biroq kelajakda ularning roli sezilarli o'sishi kutilmoqda. IP ATM & Kiosk yechimi xizmatlarni yanada samaraliroq boshqarishni ta'minlaydi va mijozlarga reklama axboroti va muhim xabarlarini tezroq yetkazib berishga imkon beradi.

Content deliverynetwork (kontent yetkazib berish uchun network). Bu yechim bank bo'linmasida multimediya xizmatlarini samarali boshqarish va bu xizmatlarni yanada samarali tarzda yetkazib berish uchun mo'ljallangan. Xizmatlar xodimlarni elektron vositalar yordamida o'qitishdan tortib to yangi mahsulot va xizmatlarni mijozlar o'rtasida reklama qilishgacha xilma-xil bo'lishi mumkin. Nima bo'lganda ham Content Delivery Network ko'plab yangi va qiziqarli imkoniyatlar taklif

etmoqda. Bu yechim sotuv bo'yicha eng yaxshi menejerlar tajribasini keng tarqatish uchun zamin yaratadi. Buyurtmachi bilan suhbatlashar ekan, bank xodimi o'z ekranida muhim dalillar va raqamlardan iborat bo'lgan murakkab dasturlarni tezda ochib olishi mumkin. IP-tarmoq infratuzilmasi ko'plab foydalanuvchilarga bir vaqtning o'zida bitta ilovaga yoki kontentga minimal kechikish bilan ulanishga imkon beradi. Yana bir muhim raqobat omili buyurtmachilar haqida, shuningdek, o'zining mahsulot va xizmatlari haqida olinadigan axborotning aniqligi va o'z vaqtidaligi hisoblanadi. Bo'linma xodimlarining bu axborotlarni tez, oson, xavfsiz va uzluksiz olishi bank uchun muhim masala hisoblanadi. Banklar o'z IP-tarmoqlaridan bo'linmalar xodimlarini elektron vositalar yordamida o'qitishni tashkil qilish uchun foydalanishi mumkin. Bunda barcha xodimlar, qayerda bo'lishidan qat'i nazar, ularga IP-kanallar bo'yicha kompyuter ekranlariga yetkazib beriladigan bir xildagi yuqori sifatli o'quv materialini oladi. O'qituvchi materialning o'zlashtirilishini masofadan turib tekshiradi va zarurat tug'ilganda xodimga tug'ilgan qiyinchilikdan chiqishiga yordam beradi. O'qish va o'qitish uchun hech qayerga borish talab qilinmasligi bank uchun vaqt va pulni sezilarli tejashga imkon beradi.

IP video surveillance (IP-tarmots orqali videokuzatuvlar) Bu yechim xavfsizlik va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish uchun uni umumiy IP- tarmoqqa birlashtirgan holda bankda videokuzatuvlar tizimini modernizatsiya qiladi. On-layn rejimida videokuzatuv himoya qilinadigan web-sayt orqali amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, videokuzatuv yordamida bank rahbariyati bo'linmada mijozlarning xulq-atvor xususiyatlarini yaxshiroq tushunishi mumkin. Favqulodda vaziyatlarda huquq-tartibot organlariga videokuzatuv tizimiga ulanish imkonini berish mumkin bo'lib, bu vujudga keladigan xavf-xatarlarga tezroq va yaxshiroq javob berishga xizmat qiladi.

Wireless (simsiz aloqa xizmatlari) Bank bo'linmasida himoya qilinadigan simsiz aloqa tarmog'ini yaratish o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish asosida masofadan turib xizmatlar ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirishi va mehnat mahsulдорligini keskin oshirishi mumkin. Bundan tashqari, bunday tarmoq mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi, chunki xodim tizimli resurslarga bir onda ulana oladi va

mijozga zarur yordam ko'rsatish imkoniyatga ega bo'ladi. Avtomatlar kompleksi bilan o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish hududlari tashkil qilish haqida qaror shu bilan izohlanadiki, axborot iqtisodiyoti sharoitlarida banklarda ish bilan yuklanganlikning kassirlar va operatsion xodimlarning iqtisodiy jihatdan katta foyda keltirmaydigan, aql va zakovati kam talab qiladigan mehnatidan kredit, konsalting va boshqa xizmat turlari bilan shug'ullanadigan menejerlarning yuqori samarali mehnati tomon qayta taqsimlash amalga oshiriladi .

Xorijiy mamlakatlar amaliyotida bank sohasida mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati ISO standartlari bilan baholanib, ularda sifat auditining asosiy tamoyillari ifodalanadi. Bugungi kunda ChEKI "Hamkorbank" ATB hamda respublikamizning boshqa tijorat banklari shu ISO standartlaridan foydalanishlari yanada samarali natija beradi. Bu quyidagicha amalga oshiriladi:

- > muntazam ichki taftishlar o'tkazish;
- > sifatni tekshirish va sifat bo'yicha talablarning bajarilishini baholash xarajatlarini o'z ichiga oladigan sifatni nazorat qilish xarajatlarini aniqlash;
- > sifat bo'yicha talablarning bajarilmasligi va xatolar bilan bog'liq xarajatlar hisob-kitobi;
- > sifatni boshqarish va rejalashtirish bo'yicha xarajatlarni nazorat qilish.

Auditdan maqsad sifatni boshqarish tizimi qanchalik samarali ishlashi va uning zaif tomonlari qanday ekanligini aniqlash hisoblanadi. Sotuv sifati auditi doirasida tekshirishning bir necha xil usullari mavjud:

1. Mijozlar o'rtasida so'rov o'tkazish. Undan asosiy maqsad muloqotlar tezligi haqida axborot olish hisoblanadi.

2. Xodimlar o'rtasida so'rov o'tkazish. Malakani tekshirish uchun qo'llanadi. Bu ishdagi qiyinchiliklar, xatolar vujudga kelish tezligi bo'yicha intervyu bo'lishi mumkin.

3. Testlar. Quyidagi shakllarda muzokaralarga tayyorgarlik sifati va ularning natijalarini tekshirish uchun foydalaniladi:

- a) mijoz bilan real munosabatlarni kuzatish;
- b) hujjatlar yuritish.

4. Mijoz va bank o'rtasida ishonch asosidagi munosabatlarga real va yashirin

to'siqlar sifatida ko'rib chiqish lozim bo'lgan signal hisoblanadigan da'vo va shikoyatlar tahlili.

Umuman olganda, bugungi kunda bank xizmatlarining innovatsion texnologiyalar asosida rivojlanishi birinchidan xizmat ko'rsatish sifatini oshirib, vaqtni tejasa, ikkinchi tomondan biznes va tadbirkorlik subyektlari uchun ham qulay imkoniyatlar vujudga kelishini ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar

O'zbekistan iqtisodiyotini barqaror sur'atlarda rivojlantirish omillaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlik taraqqiyotini ta'minlash hisoblanadi. Ushbu soha bozor konyukturasi o'zgarishlariga tez moslasha olish, yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholi bandligini ta'minlash va daromad manbalarini yaratish, o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish kabi xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi.

Respublikamizda kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat yuritishi va rivojlanib borishi ko'p jihatdan ular uchun yaratilgan shart- sharoitlarga bog'liq. Tadbirkorlik rivojiga qulay imkoniyatlar yaratadigan shart-sharoitlar orasida sifatli bank xizmatini alohida ajratib ko'rsatish lozim. Tadbirkorlik subyektlarida ishlab chiqarish kengayib borishi bilan ularning texnik ta'mirlash, moddiy-texnika ta'minoti, mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash va sotish, kommunikatsiya va aloqa, maslahat va axborot kabi bir qator xizmat turlariga bo'lgan talabi ortib boraveradi. Chunki tadbirkorlik subyektlariga yuridik shaxs maqomini berish bilangina ish bitmaydi. Ularning to'laqonli faoliyatini faqat mukammal tashkil etilgan bank xizmati bo'linmalari orqaligina tasavvur qilish mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar faoliyatida ularning xizmatlarini o'rganish masalasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Tijorat banklari o'z faoliyatlari jarayonida turli xizmatlarni bajaradilar.

Mavzuni o'rganish va amaliyot obyektidagi muomalalarni tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

“Hamkorbank” ATBda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatiladigan bank xizmatlarining muhim turlaridan biri ularni kreditlashdir. Kreditlashni asosiy xizmat turi sifatida e'tirof etishning sababi shundaki, tijorat banklari faoliyatining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra kreditlash instituti hisoblanadi.

Tadbirkorlar tomonidan taqdim etilayotgan texnik-iqtisodiy asosnoma (TIA)larning talab darajasida ishlamaganligi xorijiy kredit liniyalari o'zlashtirilishining kechikishiga asosiy sabab bo'lmoqda. Aksariyat hollarda taqdim etilgan TIALarda sotib olinadigan xom-ashyo narxlarining kamaytirilib ko'rsatilishi, sotib olinadigan texnologik uskunalar hamda sotiladigan mahsulot narxlarining real narxlarga nisbatan oshirib ko'rsatilishi TIALarni qaytadan ishlab

chiqilishiga olib kelinmoqda. Chet el kreditlarining o'z vaqtida o'zlashtirilmasligining yana bir sababi kichik biznes subyektlarning kredit ta'minotining yetishmasligidir.

Kreditlarni ajratish bo'yicha qarorlar qabul qilishda vakolatlarning haddan tashqari markazlashganligi bosh banklar va ularning filiallari o'rtasidagi javobgarlikning aniq chegaralanishiga to'sqinlik qilmoqda. Kredit buyurtmalarini ko'rib chiqishning murakkablashgan mexanizmlari kreditlarni tezkor olish imkoniyatini chegaralamoqda.

Chakana bank xizmatlari bozorining past darajada rivojlanganligi va mijozlar bilan hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yishning zamonaviy yondashuvlari mavjud emasligi ortiqcha byurokratiya va sansalorlik uchun zamin yaratmoqda.

Banklar ushbu holatlarni oldini olish maqsadida quyidagilarni amalga oshirishi zarur deb hisoblaymiz:

Kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatida samarali natijaga erishish uchun investitsion mablag'larni yuqori samaradorlikni taminlaydigan mini texnologiyalarni barpo etishga jalb qilish lozim. Investitsiya faoliyatida lizing kreditining bank kreditidan afzalligini hisobga olgan holda texnologik ta'minotning lizing munosabatlariga asoslanishi maqsadga muvofiq. Lizing munosabatlari endi oyoqqa turayotgan dehqon, fermer xo'jaliklarining rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Banklarning kichik biznes subyektlari investitsion loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan faoliyatini soliqlar orqali rag'batlantirish mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Bank faoliyatining ilg'or xalqaro tajribasini o'rganish hamda bank xizmatlari va mahsulotlarining yangi turlarini joriy etish, banklar filiallari va mini-banklar qoplanishini hamda bank xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarni hisobga olgan holda banklar filiallari va mini-banklari tarmog'ini kengaytirish hamda filiallarning kredit ajratishda bosh banklar bilan qo'shimcha kelishuvsiz mustaqil qarorlar qabul qilish bo'yicha huquqlarini kengaytirishni tavsiya etamiz.

Elektron kommunikatsiyalarni rivojlantirishga asoslangan, mijozlarga yo'naltirilgan texnologiyalar orqali biznes va tadbirkorlik subyektlarining banklar bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlarini takomillashtirish mumkin. Xorij mamlakatlarning bank xizmatlarining quyidagi turlarini respublikamiz banklarida joriy etishimiz mumkin: cash-in funksiyali bankomatlar, IP-telefoniya, customer care, IP ATM & KIOSK (IP-bankomat va kiosk), content delivery network (content yetkazib berish uchun network), IP video surveillance (IP tarmots orqali videokuzatuv), wireless (simsiz aloqa xizmatlari) va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini ISO standartlari bilan baholash.

Umuman olganda, bugungi kunda bank xizmatlarining innovatsion texnologiyalar asosida rivojlanishi birinchidan xizmat ko'rsatish sifatini oshirib, vaqtni tejasa, ikkinchi tomondan biznes va tadbirkorlik subyektlari uchun ham qulay imkoniyatlar vujudga kelishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4231-sonli qarori 7-mart 2019-yil
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini yanada qisqartirish va soddalashtirish, shuningdek, biznes yuritish shart-sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5409 sonli farmoni 2018-yil 11-aprel
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2019-yilga asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021-yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ-4086 sonli qarori 2018-yil 26-dekabr
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kam ta'minlangan oilalarni bandlik bilan ta'minlash uchun tijorat banklari tomonidan mikro kreditlar ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 857-son Qaror 20-oktabr 2017-yil
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil qilish to'g'risida"gi qarori 17-avgustda 2017-yil
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5490-sonli farmoni 27-iyul 2017—yil
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni 5-oktabr 2016-yil
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-sonli qaror 2016-yil 24-avgust
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini

shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4354-son
24.08.2011yil

10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi 2018-yil ma’lumotlari
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2018-yil 28-dekabr
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning „Bank tizimini isloh
etish va banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, hududlar va
tadbirkorlikni rivojlantirishda tijorat banklarining rolini oshirish masalalariga
bag‘ishlangan videoselektri 23.11.2018 Toshkent
13. O‘zbekiston TIV vaziri Abdulaziz Kamilovning Oliy Majlis senati yalpi
majlisidagi nutqi. Toshkent shahri, 27-may 2017-y
14. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.03.2019-y., 07/19/4231/2724-
son
15. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.03.2018-y., 07/18/3620/0933-
son
16. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi,2018-y

Asosiy adabiyotlar

17. “Bank ishi” darslik-Toshkent 2017. 3-4-bet
18. Samarqand qishloq xo‘jaligi instituti “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va
boshqaruvi” kafedrası “Kichik biznes va tadbirkorlik” fani bo‘yicha tayanch
konspekt 3-bet
19. O.B.Bo‘ronov, R.M.Egamov “Tadbirkorlik asoslari” ma‘ruzalar matni
Samarqand-2016 13-b
20. N. Murodov „Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning
iqtisodiy mexanizmlari“. T.: „Iqtisodiyot“, 2012. – 42-b.
21. M.Boltabayev, M.Qosimova “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik” Darslik
21-be t Toshkent - “Iqtisodiyot” – 2011
22. M.P. Boltabayev, M.S. Qosimova, B.K. G‘oyibnazarov, SH.J.
Ergashxodjayeva, A.N. Samadov, Sh.I. Otajonov “Kichik biznes va
tadbirkorlik” O‘quv qo‘llanma Toshkent Noshir-2011 12-bet

23. A.Razzoqov, Sh.Toshmatov, N.O'rmonov "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" darslik Toshkent-2009 38-b
24. Ж.Б. Кларк "Распределение богатства." -М., 1994. 40 стр.
25. Й. А. Шумпетер "Теория экономического развития". М.: Прогресс, 1982.
26. Ф.Хайр "Конкуренция как процедура открытия". «Мировая экономика и международные отношения» журнал 1989. 42,-36-38 стр.
27. Р.Хизрич, С.Питерс "Предпринимательство". -М., "Прогресс-Универс" 1991, 20 стр.
28. А.Хоскин "Курс предпринимательства". -Издательство БГСХА М., 1993, 23 стр..
29. "Hamkorbank" ATB Boshqaruvining 850 - sonli bayonnomasi 2018-yil 3-dekabr
30. "Hamkorbank" ATB 2016-2018- yillar ma'lumotlari
31. «O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» jurnal. –Т.: 2016-2017 yillar
32. «Bozor, pul va kredit» jurnal. –Т.: 2017-2018 yillar
33. Bank axborotnomasi. Gazetasi. 2017-2018 yillar

Internet saytlari

34. www.cbu.uz
35. www.bux.uz
36. www.bem.uz
37. www.hamkorbank.uz
38. www.norma.uz
39. www.lex.uz
40. www.bfa.uz
41. www.uzdaily.uz